Risklarni boshqarish tizimi — bu bankning strategik va operatsion maqsadlariga erishish uchun xavflarni aniqlash, o‘lchash, monitoring qilish, ularning ta‘sirini kamaytirish hamda ulardan keladigan imkoniyatlardan foydalanish bo‘yicha uzluksiz jarayondir. Zamonaviy risk-menejment tizimi bankning barcha bo‘linmalari faoliyatiga integratsiyalashgan bo‘lishi lozim.


Iqtisodiy adabiyotlarda risk tushunchasiga turlicha ta‘riflar berilgan. Masalan, F. Nayt riskni “miqdoriy o‘lchash mumkin bo‘lgan noaniqlik” sifatida ta‘riflagan. J. Mill esa “risk — bu foyda va zarar ehtimoli o‘rtasidagi tafovut” deb hisoblaydi.

Zamonaviy bank menejmentida risk tahlili “expected loss” (kutilgan zarar), “unexpected loss” (kutilmagan zarar) va “probability of default” (to‘lovga qodir emaslik ehtimoli) kabi parametrlar asosida o‘lchanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar bank kapitalining



yetariligi, qarz portfeli sifati va umumiy moliyaviy barqarorlikni baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

Shuningdek, riskni boshqarishning iqtisodiy mohiyati shundaki, u bank foydasini oshirish bilan bir vaqtda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Riskdan butunlay qochish – bu rentabellikni pasaytirish, juda yuqori riskni qabul qilish esa bankning moliyaviy xavfsizligini yo'qotishdir. Shu bois, muvozanat – asosiy boshqaruv tamoyilidir.



1-

rasm. O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida mavjud asosiy risk turlari

Tijorat banklari faoliyati o'z tabiatiga ko'ra risk bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning barqaror rivojlanishi va moliyaviy natijalari aynan risklarni qay darajada samarali boshqara olishiga bevosita bog'liqdir. Har qanday bank o'z faoliyatida foyda olish maqsadida turli tavakkalchiliklarga boradi. Shu sababli, bank tizimida mavjud risk turlarini to'g'ri aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish hamda o'zaro bog'liqligini aniqlash bank boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biridir (1-rasm).

Birinchi navbatda, kredit riski tijorat banklari uchun eng asosiy va keng tarqalgan risk turi hisoblanadi. U qarz oluvchining kredit shartnomasida belgilangan majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarmaslik ehtimolini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, kredit riski bank tomonidan ajratilgan qarz mablag'larining qaytmaslik xavfi bilan bog'liq. Kredit riskining shakllanishiga qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatining pasayishi, mamlakat iqtisodiyotida beqarorlik, noto'g'ri baholash mexanizmlari yoki





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

ichki nazoratning sustligi kabi omillar sabab bo'ladi. Shu sababli, har bir tijorat banki kredit berishdan avval qarz oluvchining moliyaviy holatini, biznes rejasi, daromad manbalari va kafolatlarini puxta tahlil qilishi zarur.

Ikkinchi muhim risk turi bozor riski bo'lib, u bankning moliyaviy aktivlari qiymatining bozor sharoitlari ta'sirida o'zgarishi natijasida zarar ko'rish ehtimolini bildiradi. Foiz stavkalari, valyuta kurslari yoki qimmatli qog'ozlar narxlarining o'zgarishi bozor riskining asosiy manbai sanaladi. Masalan, milliy valyutaning qadrsizlanishi yoki dollarning keskin mustahkamlanishi eksport-import operatsiyalarida faol bo'lgan mijozlarning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida bankning kredit portfeli sifatini yomonlashtiradi.

Shuningdek, foiz riski ham bozor riskining tarkibiy qismi bo'lib, bank aktivlari va passivlari bo'yicha foiz stavkalari o'zgarishidan kelib chiqadigan zararlar bilan bog'liq. Agar bozor sharoitida depozitlar bo'yicha foiz stavkalari tez o'sib borayotgan bir vaqtda bank kreditlar uchun stavkalarni oshira olmasa, marja qisqaradi va foyda kamayadi. Shu boisdan banklar foiz riskini boshqarish uchun "gap" tahlili, "duration" usuli yoki "stress-test" kabi vositalardan foydalanadilar.

Bank tizimining barqarorligi uchun eng xavfli risklardan yana biri sifatida likvidlik riskidir. Likvidlik riski bank o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi, ya'ni yetarli miqdorda likvid aktivlarga ega bo'lmasligi holatida yuzaga keladi. Bunday vaziyat ko'pincha bank kredit portfelinin haddan tashqari kengayib ketishi, depozit bazasining qisqarishi yoki bozor sharoitlarining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi. Likvidlik yetishmovchiligi bankning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida mijozlar ishonchini kamaytirib, reputatsion riskni ham kuchaytiradi. Shu sababli, Markaziy bank tomonidan har bir tijorat banki uchun likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha minimal normativlar belgilab qo'yilgan.

Zamonaviy bank tizimida operatsion risk ham alohida ahamiyatga ega. Bu risk inson omili, texnik nosozliklar, axborot tizimidagi xatoliklar, firibgarlik yoki ichki nazoratning sustligi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarining onlayn shaklga o'tishi, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlarining kengayishi operatsion riskni yanada oshirmoqda. Ayniqsa, kibexavfsizlik masalasi bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlardan biridir. Shu bois,





banklar “information security management system” (ISMS) va “cyber risk management framework” kabi tizimlarni joriy etmoqda.


Bundan tashqari, reputatsion risk ham bankning uzoq muddatli barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Reputatsion risk bank obro‘sining pasayishi, jamoatchilik ishonchini yo‘qotish yoki mijozlarning noroziligi natijasida paydo bo‘ladi. Bu turdagi risk, odatda, xizmat ko‘rsatish sifati pastligi, shaffoflikning yo‘qligi yoki qonunchilik talablariga rioya qilinmasligi oqibatida kuchayadi. Reputatsiyaning yo‘qolishi nafaqat mijozlar oqimini kamaytiradi, balki investorlar va xalqaro moliya institutlarining ham ishonchini pasaytiradi.

Shunga yaqin holda, komplayens riski ham tijorat banklari uchun jiddiy xavf manbai bo‘lib, u qonun, regulyator me‘yorlari yoki ichki siyosatlarga rioya qilinmasligi natijasida jarimalar, sanksiyalar va huquqiy oqibatlar kelib chiqish ehtimolini anglatadi. Masalan, “pul yuvish” yoki “terrorizmni moliyalashtirish” bilan bog‘liq shubhali operatsiyalarni e‘tiborsiz qoldirish bankni nafaqat moliyaviy, balki jinoiy javobgarlikka ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, har bir bankda komplayens xizmati faoliyat yuritib, regulyator talablari va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta‘minlaydi.

Bank risklarining bu turlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Masalan, kredit riskining oshishi likvidlik riskini kuchaytiradi, chunki qarzlarning qaytmasligi natijasida bankning naqd mablag‘lari kamayadi va o‘z majburiyatlarini bajarish qiyinlashadi. Xuddi shunday, bozor riskining kuchayishi (masalan, valyuta kursining keskin o‘zgarishi) kredit oluvchilarning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta‘sir qiladi, bu esa yana kredit riskini oshiradi. Operatsion riskning kuchayishi esa obro‘ va komplayens risklarini yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli, risklarni boshqarishda ularni alohida-alohida emas, balki integratsiyalashgan tizim asosida, ya‘ni barcha risk turlarini yagona yondashuvda baholovchi, ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga oluvchi tizim orqali boshqarish eng to‘g‘ri strategiya hisoblanadi. Bunday tizim bankka nafaqat xavflarni kamaytirish, balki ularni strategik afzallikka aylantirish imkonini ham beradi. Natijada, tijorat bankining moliyaviy barqarorligi ta‘minlanadi, uning raqobatbardoshligi va mijozlar ishonchi oshadi.


Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-2024 yillar oralig‘ida iqtisodiyotdagi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar qoldig‘i 505 trln. so‘mni tashkil etgan. Ushbu raqam O‘zbekiston YaIMning 60 foizi atrofida bo‘lib, banklarning riskka tortilgan aktivlari





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

miqdorining oshib borayotganligini o‘zida ifodalab beradi. 2023 yilning birinchi choragida milliy valyutadagi kredit qo‘yilmalari hajmi jamiga nisbatan ulushi 55,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilning shu davrida 57,2 foizga teng bo‘lgan. 2 foiz punkt miqdoridagi o‘shish iqtisodiyotda tijorat banklarining aktivlari miqdori oshib borayotganligini ko‘rsatib beradi (2-rasm).



Iqtisodiyotda kredit qo‘yilmalari qoldig‘i va tarkibi, trln. so‘m¹

Banklarning valyutalar kesimidagi depozit va kreditlar nisbatini ko‘rib chiqamiz. Bunda xorijiy valyutadagi depozitlar 51 trln. so‘m, kreditlar miqdori 216 trln. so‘m ekvivalenti hajmiga teng bo‘lmoqda. Shuningdek, milliy valyutada mos ravishda 120 va 289 trln. so‘mni tashkil etmoqda. Fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilayotgan kredit miqdorining bunchalik sezilarli farq bilan depozitga nisbatan kattaligi iqtisodiyotda valyuta kursining oshishiga olib keladi. Bunda import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun berilayotgan kredit miqdorlarining oshib borishi ham mazkur tendentsiyada valyuta kursini oshishiga o‘zining ta'sirini ko‘rsatadi. Natijada, mamlakat to‘lov balansining savdo balansi qismida ayrim manfiy farqlarning kattalashuvi vujudga keladi.

1-jadval.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistik bulletin, 2024 yil mart.



**O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatiga oid asosiy ko‘rsatkichlar (2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)**

№	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori (mlrd so‘m)	Umumiy ulushi (%)	Ma’lumot manbasi
1	Jami aktivlar	652 157	100	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
2	Kredit portfeli	471 406	72,3	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
3	Kapital	97 079	15,0	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
4	Depozitlar	241 687	37,0	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
5	Muammoli kreditlar (NPL) ulushi	8,0 %	—	Fitch Ratings (2023-yil)
6	NPL prognozi (2025–2026-yillar)	9–10 %	—	Fitch Ratings

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari 652,2 trln so‘mni tashkil etgani, mamlakat moliyaviy tizimining sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan taxminan 15–18 foiz o‘shish kuzatilganini anglatadi. Aktivlarning asosiy qismini kredit portfeli tashkil etmoqda — 471,4 trln so‘m, ya‘ni jami aktivlarning 72,3 foizi. Bu esa, banklar faoliyati hali ham real sektorni kreditlashga kuchli yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Kredit portfelinin yuqori ulushi, bir tomondan, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiruvchi omil bo‘lsa-da, boshqa tomondan, kredit riskining asosiy manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Agar qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyati pasaysa yoki iqtisodiy barqarorlik buzilsa, bu risk bank kapitaliga bevosita ta‘sir qiladi. Shu sababli, kapital hajminin 97,1 trln so‘m yoki 15 % ulushda bo‘lishi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim omil sanaladi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Depozitlarning 241,7 trln so‘m yoki 37 % ulushi esa aholining va korxonalarining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, likvidlik riskini kamaytiruvchi omil sifatida baholanadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli depozitlarning ulushi nisbatan past bo‘lgani uchun, banklar qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga uzoq muddatli kreditlar berish xavfiga duch kelmoqda, bu esa likvidlik va foiz riskini kuchaytiradi.

Xalqaro reyting agentligi Fitch Ratings ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 8 % ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich mintaqaviy mezonlarga nisbatan o‘rtacha darajada hisoblanadi, ammo prognozlariga ko‘ra, 2025–2026-yillarda NPL darajasi 9–10 % gacha oshishi mumkin. Ushbu holat iqtisodiyotda inflyatsion bosim, foiz stavkalari o‘zgarishi va ayrim tarmoqlarda rentabellik pasayishi bilan izohlanadi.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) o‘zining “Financial Sector Assessment” hisobotida O‘zbekiston bank tizimidagi so‘nggi islohotlarni yuqori baholab, ayniqsa risk asosidagi nazorat tizimi (risk-based supervision) joriy etilayotganini alohida ta’kidlagan. Bu tizim Markaziy bankka tijorat banklarining faoliyatini nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida, balki ularning risk boshqaruvi mexanizmlarining sifatiga qarab baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, tijorat banklarida kapital yetarliligi (CAR) darajasi xalqaro Basel III standartlariga yaqinlashmoqda. Bu esa, bank tizimining shoklarga nisbatan bardoshlilikini oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, risklarni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan big data tahlili, sun‘iy intellekt va machine learning uslublarining joriy etilishi ham kuzatilmoqda. Bu vositalar orqali kredit riskini oldindan prognozlash, mijozlarning moliyaviy holatini baholash va firibgarlik holatlarini aniqlash samaradorligi oshmoqda.

Umuman olganda, statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda, ammo ular duch kelayotgan risklar murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, kredit, likvidlik, va operatsion risklarning o‘zaro bog‘liqligi ularni integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida nazorat qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kapital bazasini mustahkamlash va xalqaro moliyaviy standartlarni amaliyotga to‘liq joriy etish O‘zbekiston bank sektorining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.





Xulosa

O‘zbekiston tijorat banklarining hozirgi rivojlanish bosqichi bank tizimini chuqur isloh qilish, risklarni aniq baholash va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Tahlillar shuni anglatadiki, 2024-yil holatiga ko‘ra banklar aktivlari 652,2 trillion so‘mga yetgan bo‘lib, bu 2023-yilga nisbatan o‘rtacha 15–18 foiz o‘shishni ifodalaydi. Ushbu o‘shish mamlakat iqtisodiy faolligining oshayotganini ko‘rsatsa-da, u bilan bir qatorda risklarning ham hajm va murakkablik jihatdan kengayishiga sabab bo‘lmoqda.

Tijorat banklari aktivlarining 72,3 foizi kredit portfeliga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa, banklarning iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishdagi faol ishtirokini bildiradi. Biroq shu bilan birga, kredit riskining yuqori darajada shakllanishi banklar uchun asosiy tahdid bo‘lib qolmoqda. Qarzdorlarning to‘lov qobiliyati pasayganda yoki iqtisodiy sharoit noqulaylashganda, bu kapitalga bevosita bosim o‘tkazadi. Shu sababli, Markaziy bank tomonidan kapital yetarliligi (CAR) ko‘rsatkichlarini bosqichma-bosqich Basel III talablariga yaqinlashtirish to‘g‘risidagi qaror strategik jihatdan muhim qadamdir. Bu yondashuv bank tizimining shoklarga nisbatan bardoshlilikini oshiradi.

Depozitlarning 37 foiz ulushi esa aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchining oshib borayotganini ko‘rsatadi. Bu moliyaviy barqarorlik uchun ijobiy omil bo‘lsa-da, ularning katta qismi qisqa muddatli depozitlar shaklida joylashgani likvidlik va foiz risklarini kuchaytiradi. Bunday sharoitda banklar resurslarining muddat tarkibini balanslashtirishi, aktiv va passivlarni boshqarishda “duration analysis” kabi ilg‘or metodlardan foydalanishi zarur.

Fitch Ratings tomonidan qayd etilgan 8 foizlik muammoli kreditlar ulushi (NPL) ham e‘tiborga molik. Agar ushbu ko‘rsatkich 2025–2026-yillarda prognoz qilinayotganidek 9–10 foizgacha oshsa, bu banklarning foyda marjasiga, kapital yetarliligiga va umumiy ishonch darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish, sektorlararo risk taqsimotini qayta ko‘rib chiqish hamda raqamli texnologiyalar yordamida qarz oluvchilarni baholash tizimlarini takomillashtirishlari lozim.

IMF tomonidan e‘tirof etilgan risk-based supervision tizimining joriy etilishi bank nazoratini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Endilikda nazorat jarayonlari faqat moliyaviy natijalarga emas, balki risklarni boshqarish tizimining sifatiga ham asoslanadi. Bu





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

yondashuv bank faoliyatida risk-madaniyatni shakllantirish, shaffoflikni kuchaytirish va ichki audit tizimlarini samarali ishlashini ta'minlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data) va mashinaviy o'qitish (Machine Learning) algoritmlarini risklarni prognozlash, firibgarlik holatlarini aniqlash hamda mijozlarning moliyaviy holatini tahlil qilishda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar banklarga kredit risklarini kamaytirish, individual yondashuv asosida qaror qabul qilish hamda operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston tijorat banklari duch kelayotgan asosiy xavf turlari — kredit, likvidlik, bozor, operatsion va komplayens risklaridir. Ularning o'zaro bog'liqligi sababli integratsiyalashgan risk menejment tizimini joriy etish zarur. Bunday tizim risklarni yagona yondashuvda aniqlab, ularning o'zaro ta'sirini inobatga olgan holda boshqarish imkonini beradi. Bu esa nafaqat xavf-xatarni kamaytiradi, balki bankning strategik afzalliklarini kuchaytiradi.

Shu o'rinda, Markaziy bankning so'nggi islohotlari — regulyativ talablarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi, kapital bazasining mustahkamlanishi va xususiyashtirish jarayonlarining jadallashuvi — risklarni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo tizim samaradorligini oshirish uchun banklar o'z ichki siyosatlarida risk-madaniyatni chuqur singdirishlari, xodimlarning malakasini oshirish va axborot texnologiyalarini keng joriy etishlari zarur.

Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari quyidagicha ifodalanadi:

- Integratsiyalashgan risk menejment tizimini joriy etish;
- Basel III standartlariga to'liq mos kapital siyosatini shakllantirish;
- Raqamli texnologiyalar orqali kredit riskini baholash mexanizmlarini takomillashtirish;
- Likvidlik va foiz risklarini muvozanatli boshqarish uchun stress-test amaliyotlarini kuchaytirish;
- Komplayens va kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston bank sektorining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda risklarni boshqarish madaniyatini chuqurlashtirish, xalqaro standartlarga




ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

mos tizimlarni to‘liq joriy etish va innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish kelajakda bank tizimining barqarorligini ta‘minlaydigan eng muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: Finalising post-crisis reforms*. Bank for International Settlements, 2017.
2. International Monetary Fund (IMF). *Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program Report*, Washington D.C., 2023.
3. Fitch Ratings. *Uzbekistan Banking Sector Outlook 2023–2026*, London, 2024.
4. Knight, F.H. *Risk, Uncertainty, and Profit*. Boston: Houghton Mifflin, 1921.
5. Saunders, A., & Allen, L. *Credit Risk Management in Financial Institutions*. Wiley Finance, 2021.
6. Naobetova N. *Risk Management in Uzbekistan’s Commercial Banks*, Tashkent, 2022.
7. Xoldorov S. *Credit Risks and Management Strategies of Commercial Banks in Uzbekistan*, Tashkent State University of Economics, 2023.
8. Isakov J.Y. *Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yo‘llari*, “Iqtisodiyot va moliya” jurnali, 2022.
9. Saidov J. *O‘zbekiston Respublikasi bank faoliyatida risklarni boshqarishning huquqiy asoslari*, “Moliyaviy barqarorlik” jurnali, 2023.
10. Elchiboyev M. *O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyoti*, Innovatsion iqtisodiyot jurnali, 2023.
11. <https://cbu.uz>
12. <https://fitchratings.com>
13. <https://imf.org>
14. <https://jets.innovascience.uz>.
15. <https://researchgate.net>





MINTAQA BARQAROR RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Safarov Botir Isaq o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti iqtisodiyot mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya


Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati misolida mintaqalar barqaror rivojlanishida investitsiyalardan samarali foydalanish masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Investitsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi, ularning hududiy rivojlanishga ta'siri, mavjud muammolar va istiqbollarni o'rganiladi. Tadqiqotda barqaror rivojlanish mezonlari bilan investitsion faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilgan. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari asosida investitsiyalarning samaradorligi ko'rsatkichlari statistik va analitik usullar yordamida baholangan. Shuningdek, hududiy investitsiya muhitini yaxshilashga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Barqaror rivojlanish, investitsiya samaradorligi, hududiy iqtisodiyot, Surxondaryo viloyati, iqtisodiy tahlil, investitsiya muhit, innovatsion jarayonlar, moliyaviy oqimlar, iqtisodiy o'sish, investitsion strategiya.

Abstract

This article scientifically analyzes the issue of effective use of investments in the sustainable development of the region using the example of Surkhondaryo region. The economic efficiency of investment processes, their impact on regional development, existing problems and prospects are studied. The study reveals the inextricable link between sustainable development criteria and investment activities. Based on the socio-economic characteristics of Surkhondaryo region, investment efficiency indicators were assessed using statistical and analytical methods. Also, scientifically based recommendations were developed to improve the regional investment climate.

Keywords. Sustainable development, investment efficiency, regional economy, Surkhondaryo region, economic analysis, investment environment, innovation processes, financial flows, economic growth, investment strategy.





KIRISH

Bugungi globallashuv davrida mintaqalarning barqaror rivojlanishi masalasi nafaqat alohida hududlar, balki butun davlat iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi omilga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan investitsiyalarning samarali yoʻnaltirilishi va ulardan oqilona foydalanish Surxondaryo viloyati uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Viloyatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, transport-logistika imkoniyatlari, qishloq xoʻjaligi salohiyati va mehnat resurslari uni investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish uchun muhim hududlardan biriga aylantiradi.

Investitsiyalar barqaror rivojlanishning moliyaviy asosini yaratadi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, yangi texnologiyalarni joriy etadi hamda bandlikni oshiradi. Shu bilan birga, ular ijtimoiy sohalarida ham sezilarli natijalar beradi: taʼlim va sogʻliqni saqlash infratuzilmasini yaxshilash, ekologik barqarorlikni taʼminlash, urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish kabi. Biroq Surxondaryo viloyatida investitsiya faoliyatini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud: moliyaviy manbalar yetishmasligi, xorijiy sarmoyadorlar uchun byurokratik toʻsiqlar, ishlab chiqarish infratuzilmasining cheklanganligi, ilmiy-innovatsion salohiyatning pastligi va mehnat resurslarining migratsion oqimlari.

Shu boisdan ushbu maqolada hududiy iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalardan samarali foydalanish mexanizmlari, ularning ijobiy va salbiy jihatlari hamda istiqboldagi yoʻnalishlar ilmiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barqaror rivojlanish va investitsiyalar oʻrtasidagi munosabat masalasi jahon ilmiy adabiyotida keng oʻrganilgan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasini BMT tomonidan ilgari surilgan “Sustainable Development Goals” (SDG) dasturidan boshlab koʻplab tadqiqotchilar investitsiyalarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy samaralarini oʻrganishga eʼtibor qaratmoqda. Porter, Sachs va Stiglitz singari olimlar investitsiya oqimlari nafaqat iqtisodiy oʻsishni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham taʼminlashi zarurligini taʼkidlaydilar.

Oʻzbekiston tajribasida esa investitsiya siyosatining samaradorligi davlat strategiyalari doirasida oʻrganilmoqda. Jumladan, Prezident qarorlari va “Yangi Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi”da hududiy investitsiya siyosatini kuchaytirish, chet el kapitalini jalb qilish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Surxondaryo viloyati boʻyicha ayrim iqtisodchilar (Yoʻldoshev,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Abdurahmonov, Xolmatov va b.) o‘z ishlarida qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida investitsiya oqimlarining samaradorligi past darajada ekanini qayd etishadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiya samaradorligi nafaqat moliyaviy daromad ko‘rsatkichlari bilan, balki ularning hududiy barqarorlikka qo‘shayotgan hissasi orqali baholanishi kerak. Bu jihatdan ijtimoiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik, bandlik darajasi, infratuzilma rivojlanishi kabi indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy tahlil va regressiya modellaridan foydalanildi. Surxondaryo viloyatining 2015–2024 yillar bo‘yicha investitsiya ko‘rsatkichlari, hududiy iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, xizmat ko‘rsatish sohasi hajmi, bandlik darajasi va eksport-import balansi asosiy ma’lumot manbai bo‘ldi.


Tizimli yondashuvda investitsiyalarning nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki ijtimoiy va ekologik omillarga ham ta’siri o‘rganildi. Statistik usullar orqali investitsiya hajmi va YaIM o‘sishi o‘rtasidagi korrelyatsiya aniqlanib, 0,72 koeffitsient natija berishi investitsiyaning ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida Surxondaryo viloyati boshqa viloyatlar – Toshkent, Samarqand va Farg‘ona bilan solishtirildi. Bu orqali investitsiyalardan foydalanish samaradorligi jihatidan Surxondaryo hali yetarli darajada yuqori natijalarga erishmaganini ko‘rsatdi.

Metodologiyaning yana bir muhim jihati – ekspert baholash usuli bo‘lib, unda mahalliy iqtisodchilar, tadbirkorlar va davlat amaldorlarining fikrlari hisobga olindi. Bu orqali nazariy va amaliy qarashlarning uyg‘unligi ta’minlandi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2015–2024 yillarda Surxondaryo viloyatida umumiy investitsiya hajmi 2,3 baravar oshgan bo‘lsa-da, investitsiyalarning samaradorligi kutilgan darajada yuqori bo‘lmadi. Investitsiyalar asosan qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, sanoatning yuqori qo‘shimcha qiymatli tarmoqlariga yetarlicha sarmoya jalb etilmadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish zarur. Ayni paytda, viloyatda qayta ishlash sanoati, energetika va transport-logistika infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar samaradorlikni oshirishi mumkin. Ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan, investitsiyalar asosan “yashil energetika” loyihalariga yo‘naltirilishi





kerak. Masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish hudud iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy natijalardan kelib chiqilsa, investitsiyalar bandlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynagan. So'nggi 5 yilda 45 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan bo'lib, ularning katta qismi kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qildi.

XULOSA

Surxondaryo viloyatining barqaror rivojlanishida investitsiyalardan samarali foydalanish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya hajmining o'sishi muhim bo'lsa-da, ularning samaradorligi ko'proq diversifikatsiya, innovatsion faoliyat va ekologik barqarorlik bilan belgilanadi.

Birinchi, investitsiyalarni yuqori qo'shimcha qiymatli sanoat tarmoqlariga yo'naltirish zarur. Ikkinchi, hududiy resurslardan oqilona foydalanish asosida energetika va qayta ishlash sohasida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi keng joriy etilishi kerak. Uchinchi, xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, soliqqa oid imtiyozlarni takomillashtirish dolzarbdir. To'rtinchi, ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar barqaror rivojlanishning asosiy tayanchi bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalardan samarali foydalanish Surxondaryo viloyatining iqtisodiy mustaqilligini, ijtimoiy barqarorligini va ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sachs J. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015.
2. Stiglitz J. Globalization and its Discontents. – London: Penguin Books, 2017.
3. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998.
4. BMT. Sustainable Development Goals. – New York, 2015.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Yangi O'zbekiston – 2030 strategiyasi" qarori. – Toshkent, 2023.
6. Абдурахмонов Қ. Регионал иқтисодиёт назарияси. – Toshkent: Fan, 2020.



7. Ёлдошев Ш. Инвестиция сиёсатининг худудий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисод, 2021.
8. Хўлматов А. Барқарор ривожланишда инвестицияларнинг аҳамияти. – Самарқанд, 2019.
9. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. – Тошкент, 2024.
10. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy hisobotlari. – Termiz, 2024.



PAXTA XOMASHYOSINI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASHDA QOZIQLI BARABAN QOZIQLARI UZUNLIGINING TOZALASH SAMARADORLIGIGA VA ISH UNUMDORLIGIGA TA'SIRI

Berdimurodov Umid Tog'aymurodovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, PhD. e-mail: umidberdumu5@gmail.com

Erdonov Abdurahmon Muzaffarovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, PhD. e-mail: erdonovabdurahmon59@gmail.com

Abdimajidov Farrux Abdilamitovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti, e-mail: abdimajidovfarrux6@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada paxtani iflosliklardan tozalashda tozalagichning qoziqli barabani va to'rtli yuza oralig'idan paxtani tashib o'tish hisobiga mayda iflosliklardan tozalanadi. Paxta xomashyosining titkilanganlik darajasi mayda iflosliklarning samarali ajralishiga olib keladi. Tajribalarda qoziqli baraban qoplamasining diametrini tozalash samaradorligiga va ish unumdorligining oshishiga ta'sirini o'rganish uchun seriyadagi baraban qoplamasini va qoziqli barabandagi qoziqlarining turli uzunlikdagi qoplamalar tayyorlandi. Qoziqli baraban qoplamalarining diametrini o'zgartirilganda qoziqli barabanning umumiy diametri 400 mm saqlanib qolinadi, bunda qoziqlarning uzunligi o'zgarib boradi.

Аннотация. В статье очистка хлопка от примесей осуществляется путем пропускания хлопка через зазор между ворсовым барабаном и сетчатой поверхностью очистителя. Степень просеивания хлопка приводит к эффективному отделению мелких примесей. В экспериментах с целью изучения влияния диаметра футеровки ворсового барабана на эффективность очистки и повышение производительности были подготовлены серии футеровок барабана и ворсов разной длины в ворсовом барабане.

При изменении диаметра футеровок ворсового барабана общий диаметр ворсового барабана сохраняется на уровне 400 мм, при этом длина ворсов изменяется.





Abstract. In the article, cotton is cleaned of impurities by passing the cotton through the gap between the pile drum and the mesh surface of the cleaner. The degree of cotton sieving leads to the effective separation of small impurities. In the experiments, in order to study the effect of the diameter of the pile drum lining on the cleaning efficiency and increase in productivity, a series of drum linings and piles of different lengths in the pile drum were prepared.

When changing the diameter of the pile drum linings, the total diameter of the pile drum is maintained at 400 mm, while the length of the piles changes.

Kalit so‘zlar: tozalagich seksiyasi, ta‘minlagich, qoziqchali baraban, to‘rli yuza, shnek, korpus, diametr, paxta bo‘lagi, inersiya kuchi.

Ключевые слова: секция очистки, питатель, барабан со штифтами, сетчатая поверхность, шнек, корпус, диаметр, ватный шарик, сила инерции.

Key words: cleaner section, feeder, drum with pegs, mesh surface, auger, housing, diameter, cotton ball, inertial force

Hozirgi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlari tasarrufidagi paxta tozalash korxonalarida paxtani iflosliklardan tozalashda 1XK paxtani mayda iflosliklardan tozalagichi va UXK rusumli paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash agregati qo‘llaniladi.

Paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalagichning qoziqli barabani va to‘rli yuza oralig‘idan paxtani tashib o‘tish hisobiga mayda iflosliklardan tozalanadi. Paxta xomashyosining titkilanganlik darajasi mayda iflosliklarning samarali ajralishiga olib keladi. Tajribalarda qoziqli baraban qoplamasining diametrini tozalash samaradiligiga va ish unumdorligining oshishiga ta‘sirini o‘rganish uchun seriyadagi baraban qoplamasini va qoziqli barabandagi qoziqlarining turli uzunlikdagi qoplamalar tayyorlandi (3.1-rasm).

Qoziqli baraban qoplamalarining diametrini o‘zgartirilganda qoziqli barabanning umumiy diametri 400 mm saqlanib qolinadi, bunda qoziqlarning uzunligi o‘zgarib boradi. Tozalagichning ta‘minlash barabani ostida joylashgan qoziqli barabanning konstruksiyasi prutokli baraban, qolgan barabanlarining qoplamalarining diametri oshib boradi, natijada qoziqlarning uzunligi kichrayib boradi, tozalanayotgan paxtani to‘rli yuzaga siqilgan holda titkilash va uni tashib o‘tish jarayoni yuzaga kelishi jarayonida tozalash samarasiga ta‘siri aniqlanadi (3.1-rasm).






Qoziqlari turli uzunlikdagi qoziqli barabanlarni laboratoriya qurilmasida tajribalarni o‘tkazish uchun qurilmaga o‘rnatilib, uning tozalash samaradorligi aniqlandi (3.3-rasm).

Tajribalarni o‘tkazishda S-6524 seleksion navli I-sanoat navli paxtalardan har bir tajriba uchun 200 kg dan paxta namunalari olindi. Paxta xomashyosining dastlabki iflosligi 6,6 % ni, namligi 8,2 % ni tashkil etdi.

Tajribalarni o‘tkazish vaqtida barabanlarning qozqilarining uzunligining kichrayib borishda barabanning umumiy diametrni saqlab qolindi va to‘rli yuza qoplama orasidagi masofaning kichrayib borishi ta‘minlandi, lekin tozalagichga berilayotgan paxta miqdori bir xilda (6,0 t/soat) va berilayotgan paxta (7,0 va 8,0 t/soat) tashkil etdi (3.4-3.6-rasmlar).



Ish unumdorligi – 6,0 t/soat

1-taklif etilayotgan qoziqli baraban; 2 - mavjud qoziqli baraban.

3.4-rasm. Qoziqlar uzunligining tozalash samradorligiga bog‘liqliq grafiklari


Yuqoridagi 3.4-rasmdan ko‘rinadiki, tozalagichning 6,0 t/soat ish unumdorligida qoplamalarning diametrlarini oshishi bilan to‘rli yuza bilan oraliq masofaning kichiklashishi, ya‘ni paxta xomashyosining samarali titkilanishi hisobiga tozalash samaradorligining oshishini ko‘ramiz. Tozalash samaradorligining oshishi qoplama bilan to‘rli yuza orasidagi tirqishning kattalashuvidan ushbu tirqishda paxta xomashyosining





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

turib qolmasligidan deb izoxlashimiz mumkin. Demak, bunda qurilmaning samarali ishlashi uchun uning ish unumdorligini oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Keyingi tajribalarimizni ish unumdorlikni oshirgan xolda davom ettiramiz. Quyidagi 3.5-rasmda ish unumdorlikni 7,0 t/soatdagi natijalari keltirilgan.



Ish unumdorligi – 7,0 t/soat


1-taklif etilayotgan qoziqli baraban; 2 - mavjud qoziqli baraban.

3.5-rasm. Qoziqlar uzunligining tozalash samradorligiga bog‘liqliq grafiklari

Ish unumdorlikning 7,0 t/soatida tozalash samaradorligi mavjud qoziqli barabanda qoziqlar uzunligi 40 mm ni tashkil etganda mos ravishda 4,8%, 5,3% va 6,0% ni tashkil etadi, shunindek taklif etilayotgan qoziqli barabanda qoziqlar uzunligi 40 mm, 45 mm va 50 mm bo‘lganda, mos ravishda 5,9%, 6,5% va 6,8% ni tashkil etdi.

Quyida 3.6-rasmda ish unumdorlikni 8,0 t/soatdagi natijalari keltirilgan.





Ish unumdorligi – 8,0 t/soat

1-taklif etilayotgan qoziqli baraban; 2 - mavjud qoziqli baraban.

3.6-rasm. Qoziqlar uzunligining tozalash samaradorligiga bog‘liqliq grafiklari

Ish unumdorlikning 8,0 t/soatida tozalash samaradorligi mavjud qoziqli barabanda 4,3%, 5,0% va 5,8% ni tashkil etadi, shuningdek taklif etilayotgan qoziqli barabanda qoziqlar uzunligi 40 mm, 45 mm va 50 mm bo‘lganda, mos ravishda 5,6%, 6,2% va 6,6% ni tashkil etdi.

Xulosa. Tozalagichning ish unumdorliklarining oshib borishi tozalash samarasining tushib borishiga, ish unumdorlikning 7,0 t/soatida, qoziqlar uzunligi 50, 45 va 40 mm ni tashkil etganda tozalash samaradorligining eng katta miqdorda ekanligini ko‘rsatdi. Demak, amaldagi tozalagichlarda paxta xomashyosining birinchi va ikkinchi barabanlarda samarali titkilanishi va tozalanishini, shuningdek, uchinchi va to‘rtinchi barabanlarda tozalash samaradorligining tushib ketishini hisobga olsak, taklif etilayotgan qoziqli barabanlar qoziqlarining uzunligini va oraliq masofani kamaytirish hisobiga tozalash samaradorligining oshishiga erishish mumkinligi tajribalardan ko‘rinmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Berdimurodov U.T., Djuraev A., Rosulov R.X., Xolmirzaev J.Z., Xursandova F. Razrabotka effektivnoy konstruksii xlopkoochistitelnogo agregata, i metodika rascheta obshchey zony melkoy ochistki. FerPI, Ilmiy – texnik jurnali, Tom 5, №6, 2021, 245-249 s.
2. Мирошниченко Г.И. Основы проектирование машин первичной обработки хлопка. М., Машиностроение, 1972, 486 с.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

3. Джураев А., Росулов Р.Х., Бердимуродов У.Т., Холмирзаев Ж.З. Очиститель волокнистого материала. Заявка на полезную модель №20210179. от 08.04.2021 г.
4. Пановко Я.Г. Основы прикладной теории колебаний и удара. М. Машиностроение, 1976, 320 с.
5. Тимошенко. С.П., Янг Д.Х., Унвер У. Колебания в инженерном деле. М. Машиностроение, 1976, 320 с.
6. Тарг С.М. Краткий курс теоретической механики. 12-изд. «Высшая школа», М., 2005, с.439.
7. Холмирзаев Ж.З. Динамика машинных агрегатов и рабочего органа очистителя ЧХ-5. Авт. дисс... к.т.н., Ташкент, 1999, 18 стр.
8. A.Djuraev, S.Sayitkulov, O.Rajabov, B.Bozorov, N.Komilov. Research on improving the working bodies of the machine for clearing cotton from waste. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 6. Issue 3/March 2021.
9. Yunusov S.Z., Khaidarov A. and Bobomurodov T. G. 2013. Machine unit with the mechanism of a composite cylinder of technological machines. Theory of machines and working processes. MNPК 2013 pp 26-7.
10. Mansurova M.A., Madrakhimov Sh. and Umarova Z.M. Analysis of the influence of the lengths of the coupler and rocker arm links on the



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xakimov Husnidin Xusanovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti iqtisodiyot mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni, uning yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi hissasi, yangi ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyati, shuningdek, moliya-kredit resurslariga bo'lgan ehtiyoj va ulardan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqilgan. Xorijiy tajriba va milliy sharoitlar qiyosiy tahlil qilinib, kichik biznesni moliyalashtirish va kreditlash mexanizmlarini samarali takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, moliya-kredit mexanizmi, investitsiya, bank krediti, innovatsion loyihalar, iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kreditlash tizimi.

Abstract

This article analyzes the issues of improving the financial and credit mechanism for the development of small businesses in Uzbekistan on a scientific basis. The role of small business and private entrepreneurship in the country's economy, its contribution to the formation of gross domestic product, its importance in creating new jobs, as well as the need for financial and credit resources and the effectiveness of their use are considered. A comparative analysis of foreign experience and national conditions is carried out, and scientifically based recommendations are developed for the effective improvement of small business financing and lending mechanisms.

Keywords. Small business, private entrepreneurship, financial and credit mechanism, investment, bank credit, innovative projects, economic growth, financial stability, entrepreneurship support, lending system.



KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday davlat iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ular yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy diversifikatsiyani ta‘minlash, aholining daromadlarini oshirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ham kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiy strategiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar joriy qilindi.

Kichik biznesning barqaror rivojlanishi uchun moliyaviy resurslarga keng yo‘l ochilishi va kreditlash tizimining samarali ishlashi zarur. Chunki kichik biznes subyektlari ko‘pincha o‘z faoliyatini kengaytirish uchun yetarli kapitalga ega bo‘lmaydi va moliya-kredit resurslariga muhtoj bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish kichik biznesni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda kreditlash tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, kichik biznes subyektlari uchun kredit resurslarining yetariligi va ularning qulay shartlarda taqdim etilishi bilan bog‘liq muammolar mavjudligicha qolmoqda. Banklarning yuqori foiz stavkalari, garov ta‘minoti bo‘yicha talablarning qattiqligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi va kredit risklarini boshqarish tizimining samaradorligi kichik biznes faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan — mikrokreditlar, lizing, faktoring va crowdfunding kabi mexanizmlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani ham kichik biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Shu bois, ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha nazariy yondashuvlar, xorijiy tajribalar va amaliy takliflar chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik biznesni rivojlantirish va moliya-kredit mexanizmlarini takomillashtirish masalasi jahon iqtisodiyotida keng o‘rganilgan. Masalan, J. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyalarida kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning dinamikasini ta‘minlovchi asosiy tadbirkorlik shakli sifatida talqin etiladi. Uning fikricha, kredit





resurslaridan oqilona foydalanish innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Keyingi davrlarda P. Друкер, M. Porter kabi iqtisodchilar kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi va iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi omil ekanini qayd etishgan. Ayniqsa, kichik biznes uchun moliya-kredit resurslariga keng kirish imkoniyatini yaratish iqtisodiy o'sishning asosiy mezonlaridan biri sifatida ko'riladi.

Rossiya iqtisodchilari Поляков, Макаров va Ушаковlarning tadqiqotlarida kichik biznesni kreditlash tizimi samaradorligini oshirishda davlatning roli, banklarning innovatsion moliyaviy xizmatlari va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarining ahamiyati ta'kidlangan.

O'zbekiston olimlari Q. Abdurahmonov, Sh. Yo'ldoshev va A. Xolmatovlarning ilmiy ishlarida mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish masalalari, kredit resurslarini jalb qilishdagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari chuqur o'rganilgan. Ularning fikricha, kichik biznesni moliyalashtirishning samarali tizimi bo'lmasa, iqtisodiy islohotlar natijadorligi pasayadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda davlat tomonidan kafolatlangan mikrokreditlash dasturlari, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va moliyaviy maslahat xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Germaniya va Yaponiya tajribasida kichik biznesni kreditlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik kuchli rivojlangan. AQShda esa kichik biznes administratsiyasi (SBA) kichik tadbirkorlarga kredit kafolatlari va grant dasturlarini taqdim etadi.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishda xorijiy tajribadan oqilona foydalanish, bank xizmatlari sifatini oshirish, moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kengaytirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va statistik baholash usullariga asoslandi. Avvalo, mamlakatda kichik biznesning rivojlanish ko'rsatkichlari — yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, yangi ish o'rinlari yaratishdagi hissasi va soliqlar orqali byudjetga qo'shgan hissasi statistik jihatdan tahlil qilindi.

Shuningdek, 2010–2024 yillar oralig'ida kichik biznes subyektlari tomonidan jalb qilingan kreditlarning hajmi, ularning foiz stavkalari va qaytarilish darajasi o'rganildi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Statistik ma'lumotlar asosida kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari va investitsion loyihalarning natijadorligi baholandi.

Qiyosiy tahlil orqali O'zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) hamda mintaqaviy qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston) tajribasi bilan solishtirildi. Bu jarayonda kichik biznesni kreditlashda qo'llanilgan davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va moliyaviy mexanizmlar o'rganildi.

Ekspert baholash usuli orqali iqtisodchilar, bank mutaxassislari va kichik biznes vakillarining fikrlari yig'ildi. Ularning fikricha, O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning asosiy muammolari quyidagilardan iborat: yuqori foiz stavkalari, kredit olish uchun garov ta'minotining qattiqligi, bank xizmatlari sifati va innovatsion moliyaviy instrumentlarning cheklanganligi.

Metodologiya doirasida shuningdek, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barqaror rivojlanish mezonlari ham hisobga olindi. Bu mezonlar iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik, bandlik darajasining oshishi va hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini ham qamrab oldi.

NATIJARLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning eng faol segmenti bo'lib, 2024 yil holatiga ko'ra, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56 foizni tashkil etmoqda. Kichik biznesning soliqlar orqali byudjetga qo'shgan hissasi esa 45 foiz atrofida bo'lib, u iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga qaramay, kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Kredit resurslarining cheklanganligi, foiz stavkalarining yuqoriligi va garov talablarining qat'iyiligi ko'plab tadbirkorlar uchun jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, bank tizimining xizmat ko'rsatish sifati va innovatsion moliyaviy instrumentlarning kamligi kichik biznesning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira olmayapti.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- davlat kafolatlari asosida mikrokreditlash dasturlarini kengaytirish;
- soliq va bojxona imtiyozlarini yanada takomillashtirish;





– bank xizmatlari sifatini oshirish va raqamli moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish;

– crowdfunding, lizing va faktoring kabi zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanishni rivojlantirish;

– kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy maslahat xizmatlarini kengaytirish.

Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta‘minlaydi. Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi daromadlarining oshishi va hududiy iqtisodiy rivojlanishning jadallashishi bevosita moliya-kredit mexanizmining samarali ishlashiga bog‘liq.

XULOSA

Maqola natijalaridan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash mumkinki, kichik biznes O‘zbekiston iqtisodiyotida hal qiluvchi o‘rin tutadi. U nafaqat iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlaydi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining ijtimoiy farovonligini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi.


Biroq kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarida mavjud muammolar ularning to‘liq imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuning uchun moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini samarali takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:

- mikrokreditlash va imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish;
- bank xizmatlari sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- garov ta‘minoti talablarini yumshatish va davlat kafolatlarini kengaytirish;
- zamonaviy moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish;
- soliq va bojxona imtiyozlarini yanada takomillashtirish;
- kichik biznes uchun moliyaviy maslahat va konsalting xizmatlarini rivojlantirish.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilsa, kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, ularning investitsion faolligi ortadi va mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishga erishadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
Mahkumlar uchun yashash joylari ularning sodir etgan jinoyatga bog‘liq ravishda maydoni 11 kv.m. li yopiq va ochiq bo‘limlardan iboratdir. Yopiq bo‘limda saqlanayotgan mahkum muayyan vaqtdan so‘ng, ijobiy xatti-harakatlariga qarab ochiq bo‘limga o‘tkazilishi mumkin. Qoida tariqasida, yopiq bo‘limda saqlash vaqti taxminan to‘rt oyni tashkil qiladi, ammo salbiy xul-atvorga ega mahkumlar u yerda ikki yilgacha bo‘lishlari ham mumkin. Yopiq bo‘limda saqlanadigan mahkumlar sport va madaniy tadbirlarga oyiga 1-2 marta qatnashishlari mumkin. Ochiq bo‘limda saqlanadigan mahkumlar uchun ushbu tadbirlarda ishtirok etish chegarasi belgilanmagan.

Ochiq bo‘limda joylashgan xonalar har bir mahkumning didiga qarab bezatilgan. Jazoni o‘tash rejimini buzmagani mahkumlar dam olish kunlari uylariga qo‘yib yuboriladi. Ochiq bo‘lim hududida maxsus izolyator mavjud bo‘lib, u yerda mahkumlar jazo o‘tash davomidagi turli huquqbuzarliklar uchun joylashtiriladi. Izolyatorida bo‘lish qoidalari maxsus reglament bilan tartibga solinib, u yerda bo‘lish muddati mahkum tomonidan sodir etilgan harakatning xavflilik darajasiga qarab 1-2-xaftadan 9 oygacha bo‘lishi mumkin⁹.

Voyaga yetmaganlar saqlanadigan axloq tuzatish muassasalarida keng yordamchi xo‘jalik mavjud bo‘lib, ushbu xo‘jalikda issiqxona va bog‘lar tashkillashtirilgan. Ustaxonalarda voyaga yetmagan mahkumlar florist-dekorativ kasbini egallaydilar.

⁸ Рябых С.Б. Правовой режим исполнения и отбывания наказания в воспитательных колониях России. Дисс.канд.юрид.наук: – Москва, 2011. – С. 74.

⁹ Рябых С.Б. Правовой режим исполнения и отбывания наказания в воспитательных колониях России. Дисс.канд.юрид.наук: – Москва, 2011. – С. 74-75.





Muassasada mukammal jihozlangan sport zallari, o'yinlar va mashg'ulotlar uchun xonalar, kompyuter xonalari, ustaxonalar mavjud. Muassasadagi rejim va kundalik hayot ko'proq yoshlar lageriga o'xshash tarzda tashkil etilgan.

Muassasadagi barcha mahkumlar qondagi alkogol va giyohvand moddalar uchun muntazam ravishda tekshiriladi. Shuningdek, muassasa ma'muriyati o'spirinni spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan yaqinlari bilan aloqa qilishdan himoya qilish huquqiga ega. Bunday qarindoshlar va tanishlar uchrashuvlarga kelishlari taqiqlanadi. Shvetsariyaning yosh jinoyatchilarga ta'siri tizimidagi eng qimmatli narsa shundaki, asosiy e'tibor to'liq nazoratga emas, balki ular bilan ishlashning barcha bosqichlarida reabilitatsiya va sotsializatsiyaga qaratilganligidir.

Italiyada esa voyaga yetmagan shaxslar uchun jinoyiy javobgarlik belgilaydigan haqida alohida qonunlar mavjud. Xususan, 2006-yilda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar huquqi to'g'risida"gi Qonun (Legge 285/1997)¹⁰ voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyiy xatti-harakatlarni tartibga soladi. Ushbu davlatda Voyaga yetmaganlar uyi (Istituto Penale Minorile) ya'ni voyaga yetmaganlarning jazoni o'tashi uchun maxsus muassasalar mavjud. Mazkur davlatda mahkumlarning ta'lim olish huquqi bilan bir qatorda chet tillarni o'rganishi ham rag'batlantiriladi. Muassasalarda che tillarini o'rgatadigan maxsus kurslar ham mavjud bo'lib, ularning haqi mahkumning hisobidan amalga oshiriladi¹¹.

Jazo o'tash tartibi va shartlarini buzgan voyaga yetmagan mahkumlar ta'lim olish, kutubxona xizmatidan foydalanish, sport o'yinlari va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, yaqin qarindoshlari bilan uchrashish kabi huquqlardan mahrum etilishi mumkin.

Italiya davlatida ozodlikdan mahrum qilish jazosini samarali ijro etish, mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish maqsadida penitensiar muassasalar ma'muriyati mahkumlar zarur kasb va mutaxassisliklarga o'qitilib, jazoni o'tab chiqqanlaridan o'zini kasbiy ko'nikmalaridan kelib chiqib tegishli korxonalar va muassasalarda faoliyat olib borishiga ko'maklashadi.

¹⁰ "Voyaga yetmaganlar huquqi to'g'risida"gi Qonun, 28 mart 1997 yil, 285-sonli qonun. [Legge 285/1997 - Normativa](#)

¹¹ Беляева Л.И. Исполнение наказания в виде лишения свободы в отношении несовершеннолетних: международные стандарты. – М.: Вестник института, 2014. – С. 112.





Fransiyaning voyaga yetmagan jinoyatchilarga nisbatan jazo siyosati “yangi ijtimoiy himoya” konsepsiyasining qoidalariga asoslanadi, unga ko‘ra jazo birinchi navbatda ijtimoiy xavfli shaxslarni tuzatish, ularni qayta ijtimoiylashtirish maqsadini ko‘zlashi kerak. 1958-yildagi Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining 728-moddasida jazoni o‘tash uchun mo‘ljallangan qamoqxonalardagi rejim “mahkumlarni qayta tarbiyalash va ularni jamiyatda normal holatga qaytarish”ga yordam berishi kerakligi nazarda tutilgan¹².

Ushbu vazifalar Fransiyada jazo o‘tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan to‘liq amalga oshiriladi. E‘tiborlisi, ushbu davlatda ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmagan mahkumlar mamlakatning qolgan aholisi kabi barcha tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega. Bu borada 1994-yil 18-yanvarda qabul qilingan qonun muhim ahamiyat kasb etib, mazkur qonun mahkumlarni qamoqxona joylashgan joyda joylashgan kasalxonalarda davolashni, shuningdek ularning har birini ijtimoiy ta‘minot organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, mahkumlar ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilinganidan keyin ularni davolash zarur bo‘lsa, davolash kursini davom ettirish imkoniyati ko‘zda tutilgan.

Fransiyaning jazoni ijro etish muassasalarida, voyaga yetmaganlarga rag‘batlantirish chorasi sifatida o‘zi xohlagan shaxsiy buyumidan foydalanish huquqi berilishi mumkin.

Fransiya qamoqxonalarda voyaga yetmaganlarni birinchi navbatda o‘qitishga katta ahamiyat beriladi. Ta‘lim tizimiga asosan, maktabda o‘qish 16 yoshgacha majburiydir. O‘quv jarayonini Fransiya ta‘lim vazirligining qamoqxona muassasalariga yuborilgan o‘qituvchilari amalga oshiradilar. 1995-yilda Adliya vazirligi va Ta‘lim vazirligi tomonidan imzolangan shartnoma tufayli qamoqxona xizmatining har bir mintaqaviy boshqarmasi huzurida pedagogika bo‘limlari tashkil etildi¹³. Ularning maqsadi mahkumlarning boshlang‘ich ta‘limining barcha turlarini ta‘minlash va ta‘lim jarayoni yakunlangandan so‘ng belgilangan shakldagi hujjatlarni berishdir. Agar mahkum o‘zi xohlasa, u ta‘limning keyingi bosqichlarida ham o‘qishini davom ettirishi mumkin.

¹² Рябых С.Б. Правовой режим исполнения и отбывания наказания в воспитательных колониях России. Дисс.канд.юрид.наук: – Москва, 2011. – С. 68.

¹³ Basic education in prisons. <https://unesdoc.unesco.org/>



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Voyaga yetmagan mahkumlarning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasiga hissa qo‘shadigan rejimning muhim elementlaridan biri bu ularda madaniyatga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirishdir. Muassasa ijtimoiy xodimlari shahar va departament tuzilmalari yordamida, shuningdek, mamlakat Madaniyat vazirligi ko‘magida mahkumlarni rassomchilik bilan tanishtirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etadilar. Tadbirlar jarayonida mahkumlar badiiy asarlar, ijodiy jamoalar estetik yo‘nalishining turli jabhalarini ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi.

Shuningdek, Fransiya axloq tuzatish muassasalarida barcha mahkumlar kirishi mumkin bo‘lgan kutubxona, Adliya vazirligi hamda Yoshlar va sport vazirligi homiyligida tashkil etilgan ijtimoiy-madaniy va sport assotsiatsiyasi mavjud. Ushbu tuzilmalarning maqsadi mahkumlarning ijtimoiy hayotga qo‘shilish istagini qo‘llab-quvvatlashdir.

Xorijiy davlatlarning voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish bilan bog‘liq tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy Yevropada voyaga yetmagan mahkumlar uchun muassasalarda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish va o‘tashni huquqiy tartibga solish Liberal model bilan ajralib turadi, bu yerda rejimning faqat eng muhim masalalari normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi, qolganlari uchun esa, muassasalarning mahalliy hujjatlari chiqariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Беляева Л.И. Исполнение наказания в виде лишения свободы в отношении несовершеннолетних: международные стандарты. – М.: Вестник института, 2014. – С. 67.
2. Yuldashev M.Sh. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etishda xorij tajribasi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi, 2009. № 3. – B. 99.
3. Рябых С.Б. Правовой режим исполнения и отбывания наказания в воспитательных колониях России. Дисс.канд.юрид.наук: – Москва, 2011. – С 71.
4. Фомин Ф., Александров Ю. Несовершеннолетние в тюрьмах Германии. Преступление и наказание. 2009. № 2. – С. 58-59.

5. Yuldashev M.Sh. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 77.
6. Кузнецов М.И. Организация социальной службы пенитенциарных учреждениях Швейцарии. Преступления и наказания. 2003. № 11. – С. 26-29.
7. “Voyaga yetmaganlar huquqi to‘g‘risida”gi Qonun, 28 mart 1997 yil, 285-sonli qonun. [Legge 285/1997 - Normativa](#)
8. Беляева Л.И. Исполнение наказания в виде лишения свободы в отношении несовершеннолетних: международные стандарты. – М.: Вестник института, 2014. – С. 112.
9. Basic education in prisons. <https://unesdoc.unesco.org/>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIK SIYOSATINI TATBIQ ETISH VA UNI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Boboraxmatov Azizbek Rustamovich

boborakhmatovazizbek@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti ,

Ommaviy huquq fakulteti 1- kurs B-patok 3-guruh talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida gender tenglik siyosatini shakllantirish, uni amaliyotga tatbiq etish hamda tizimli rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil etilgan. Mamlakatda gender tenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada qabul qilingan qonunlar, hukumat qarorlari va milliy strategiyalar amaliy natijalar berayotgani yoritilgan. Jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi (2021–2030 yillar)" hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari asosida erishilgan yutuqlar tahliliy tarzda o'rganilgan.

Maqolada shuningdek, ta'lim, mehnat, siyosat va iqtisodiyot sohalarida gender tenglikni mustahkamlash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda mavjud muammolar ham ko'rsatib o'tilgan. Muallif gender tengligini ta'minlashda ta'lim tizimida gender madaniyatini shakllantirish, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushini oshirish, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash hamda gender statistikasi tizimini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. Tadqiqot natijasida gender tenglik siyosatini izchil amalga oshirish nafaqat ayollar manfaatini himoya qilish, balki jamiyatning demokratik rivojlanishi, iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qilishi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, xotin-qizlar, teng imkoniyatlar, davlat siyosati, strategiya, ijtimoiy rivojlanish, huquqiy kafolatlari.





Measures being taken to implement gender equality policy and its systematic development in the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the measures being taken in the Republic of Uzbekistan to formulate, implement and systematically develop a gender equality policy. Ensuring gender equality in the country is recognized as one of the priority areas of state policy, and it highlights the practical results of the laws, government resolutions and national strategies adopted in this regard. In particular, the achievements made on the basis of the Law “On Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men”, the “Strategy for Ensuring Gender Equality (2021–2030)”, and state programs aimed at supporting women are analyzed.

The article also indicates the work being carried out to strengthen gender equality in the fields of education, labor, politics and the economy, as well as existing problems. The author substantiated the need to form a gender culture in the education system, increase the share of women in leadership positions, support women's entrepreneurship, and improve the gender statistics system in ensuring gender equality. The study concluded that the consistent implementation of gender equality policies will not only protect the interests of women, but also serve to ensure the democratic development of society, economic growth, and social justice.

Keywords: gender equality, women, equal opportunities, state policy, strategy, social development, legal guarantees.

Принимаемые меры по реализации политики гендерного равенства и ее системному развитию в Республике Узбекистан

Аннотация: В статье анализируются меры, принимаемые в Республике Узбекистан по формированию, реализации и системному развитию политики гендерного равенства. Обеспечение гендерного равенства в стране признано одним из приоритетных направлений государственной политики, и освещаются практические результаты принятых в этой связи законов, постановлений





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

правительства и национальных стратегий. В частности, анализируются достижения, достигнутые на основе Закона «О гарантиях равных прав и возможностей женщин и мужчин», «Стратегии обеспечения гендерного равенства (2021–2030 годы)», а также государственных программ, направленных на поддержку женщин.

В статье также указывается на проводимую работу по укреплению гендерного равенства в сферах образования, труда, политики и экономики, а также существующие проблемы. Автором обоснована необходимость формирования гендерной культуры в системе образования, увеличения доли женщин на руководящих должностях, поддержки женского предпринимательства и совершенствования системы гендерной статистики в обеспечении гендерного равенства. В исследовании сделан вывод о том, что последовательная реализация политики гендерного равенства не только защитит интересы женщин, но и будет способствовать демократическому развитию общества, экономическому росту и социальной справедливости.

Ключевые слова: гендерное равенство, женщины, равные возможности, государственная политика, стратегия, социальное развитие, правовые гарантии.

KIRISH

Zamonaviy dunyo taraqqiyoti sharoitida inson rivoji, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolat hamda inson xavfsizligini kafolatlash yo'lidagi jarayonlarda ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha sohalarida teng ishtirok etishi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish barqaror rivojlanish jarayonini jadallashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni bartaraf etish — nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan, balki jamiyatning boshqa sohalarida ham taraqqiyotga turtki beruvchi muhim omildir. Aslida, gender atamasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalab qolmaydi. U har ikkala jins vakillarining teng huquqliligi, o'z maqsad va orzulariga erkin intilishi, hayot sifatini yaxshilash uchun bir xil sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Rivojlangan jamiyatning asosiy talablaridan biri — bu erkak va ayol o'rtasidagi huquq hamda





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

imkoniyatlar tengligini amalda ta'minlashdir. Avvalo Gender tenglik o'zi nima degan aavolga javob beradigan bo'lsak gender tenglik – bu hayotning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy) erkaklar va ayollarning teng huquqliligi, imkoniyatlari va vakolatlarga ega bo'lishi demakdir. Bu jamiyatda shaxsning jinsidan qat'iy nazar, o'zini to'laqonli namoyon etishi uchun teng imkoniyatlar yaratishni ham o'z ichiga oladi. Gender tenglik jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlarda dolzarb masala sifatida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda oilada, jamiyatda, ayniqsa xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan e'tibor natijasida nafaqat ijtimoiy munosabatlarda, balki huquqiy-me'yoriy sohada ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois, bugungi kunda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar tahlil qilinadigan bo'lsa, gender tenglikni mustahkamlash yo'nalishida erishilgan natijalar yaqqol ko'zga tashlanadi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Gender tenglik siyosati masalalari bo'yicha milliy va xalqaro miqyosda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda BMTning "Ayollar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" (CEDAW, 1979-yil), "Pekin deklaratsiyasi va harakatlar platformasi" (1995-yil), hamda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 5-maqsadi – "Gender tengligini ta'minlash va ayollarni hamda qizlarni imkoniyatlardan to'liq foydalana oladigan holatga keltirish" – ushbu yo'nalishdagi asosiy normativ-huquqiy asoslarni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash borasida so'nggi yillarda qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun(2019-yil 2-sentabr), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (2019-yil 2-sentabr), shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi bu boradagi tizimli siyosatni shakllantirdi. Mahalliy tadqiqotchilardan Sh. Abdujalilova, M. Karimova, N.Rustamovalarning ilmiy ishlarida O'zbekistonda gender siyosatini amalga oshirishdagi institutsional o'zgarishlar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki, iqtisodiy mustaqilligi va huquqiy himoyasi masalalari yoritilgan. Shuningdek, iktimoiy fikr markazi va O'zbekiston Respublikasi Gender tenglik komissiyasi tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlarda gender muammolarini hal etishning milliy mexanizmlari, ayollar bandligini oshirish va siyosiy





ishtirokini kengaytirish masalalari ko‘tarilgan. Xorijiy mualliflardan A. Sen, N. Fraser, S. Walby va J. Butlarning asarlari gender tenglikni ijtimoiy adolat, iqtisodiy rivojlanish va madaniy qadriyatlar kontekstida tahlil qiladi. Ushbu nazariy manbalar O‘zbekiston sharoitida gender siyosatini baholash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston gender tenglik siyosatini xalqaro standartlarga mos holda olib borayotgan bo‘lsa-da, amaliy natijalarga erishishda ijtimoiy stereotiplar, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari va siyosiy vakillik darajasi bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglik siyosatini tatbiq etish jarayonini tahlil qilishda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanilgan.

2.2. Metodologiya

Normativ-huquqiy tahlil metodi– gender tenglikni ta‘minlashga oid qonun hujjatlari, prezident farmonlari, hukumat qarorlari va strategik dasturlar o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil metodi - O‘zbekiston tajribasi boshqa MDH davlatlari hamda rivojlangan mamlakatlarning gender siyosati bilan solishtirildi.

Statistik va empirik tahlil - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Mehnat va bandlik vazirligi, Gender tenglik komissiyasi ma‘lumotlari asosida gender ko‘rsatkichlari (ayollar bandligi, siyosiy ishtiroki, ta‘lim darajasi) tahlil qilindi.

Sotsiologik yondashuv - ijtimoiy ongda gender stereotiplar, ayollarning mehnat bozorida duch keladigan muammolari hamda oila institutidagi roliga oid ijtimoiy qarashlar o‘rganildi.

NATIJARAR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “ayollar va erkaklar teng huquqlidirlar” degan norma mustahkamlangan. Bu qoidaga asosan, davlat ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash, ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va oilaviy hayotdagi rolini oshirish uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini oladi. 2023 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa gender tenglik tamoyili yanada kengroq yoritilib, ayollarni kamsitishning har qanday shakliga yo‘l qo‘yilmasligi, ularning ijtimoiy himoyasi davlat tomonidan kafolatlanishi qayd etilgan.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan “Og’ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo’lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to’liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ayollarni ijtimoiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, ularning turmush sharoitini yaxshilash hamda tenglikni ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qaror O‘zbekistonda gender siyosatini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi tizimlar orqali minglab ayollarning ijtimoiy muammolari o‘rganilib, ularni hal etish bo‘yicha amaliy yordamlar ko‘rsatilmoqda. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar, grantlar va o‘quv dasturlari yo‘lga qo‘yilgan.

2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi SQ-289-IV-son qarori bilan tasdiqlanishi mamlakatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash yo‘lida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu strategiya 2030 yilgacha bo‘lgan davrda jamiyat hayotining barcha sohalarida - siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy yo‘nalishlarda gender tenglikni ta’minlashni maqsad qilib qo‘ygan. Strategiya nafaqat huquqiy hujjat sifatida, balki ijtimoiy adolat, inson huquqlariga hurmat, barqaror taraqqiyot va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan keng ko‘lamli dasturdir. Uning amalga oshirilishi natijasida ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlash, ayollarning mehnat bozorida ishtirokini oshirish, ularning davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlardagi faolligini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, gender tenglik strategiyasi orqali aholining gender madaniyatini rivojlantirish, oilaviy munosabatlarda o‘zaro hurmat va tenglikni mustahkamlash, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitish holatlarining oldini olishga zamin yaratiladi. Umuman olganda, O‘zbekistonning gender tenglik strategiyasi jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida adolatli muvozanatni yaratish, inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishish yo‘lida muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishdagi navbatdagi muhim qadamlardan yana biri bu - O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar






uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunidir. Ushbu qonun mamlakat tarixida gender tenglik masalasini mustaqil huquqiy asosda tartibga soluvchi birinchi hujjat bo‘lib, u davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga gender yondashuvni joriy etish, ayollarni kamsitish holatlarining oldini olish hamda ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilab bergan. 2019-yil 2-sentabrdagi mazkur qonun O‘zbekiston jamiyatida xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida tenglikni ta‘minlash, kamsitishlarni bartaraf etish va adolatli ijtimoiy tizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda. U nafaqat huquqiy, balki ma‘naviy va ijtimoiy jihatdan ham jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi sifatida e‘tirof etiladi.

Muhokama

Gender siyosatini izchil amalga oshirish natijasida so‘nggi yetti yil ichida O‘zbekistonda ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki 27 foizdan 35 foizgacha oshdi. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida gender tenglikni ta‘minlash borasidagi tizimli chora-tadbirlar samaralarini qayd etib, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi ilk bor 35 foizga yetganini alohida ta‘kidladi. Mamlakatda Qonunchilik palatasi a‘zolarining 32 foizi, Senat tarkibining esa 25 foizi ayollardan iborat. Tadbirkor ayollar soni ikki hissa ortib, o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan xotin-qizlar 205 ming nafardan oshgan. Minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlik yo‘nalishlarida tayyorlovdan o‘tgan. Sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimida band aholining 77 foizini, iqtisodiyot hamda sanoat sohasida esa 46 foizini ayollar tashkil etadi. Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar soni 6 baravar ko‘payib, talabalarning yarmidan ko‘prog‘ini xotin-qizlar egallamoqda.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Muassasa	2018-yil (%)	2019-yil (%)	2020-yil (%)	2021-yil (%)	2022-yil (%)
Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi	12,6	32,0	32,7	32,0	
Oliy Majlis Senati	20,0	20,0	23,7	24,0	
Ma'muriy boshqaruv organlari	27,0	26,6	26,5	27,7	
Vazirlik va Davlat qo'mitalarida vazir lavozimida	2,9	2,9	3,03	3,0	5,7
Ichki ishlar xodimlari	8,7	3,2	11,0		
Korxon va tashkilotlardagi rahbarlik	11,0	11,1	10,7		
Ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi	21,9	14,9	24,1		
Sudyalar orasida ayollar ulushi	11,9	12,4	12,8	13,3	

Jadvalda keltirilgan xotin-qizlarning boshqaruv apparatidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy hisobda O'zbekiston Respublikasida ayollarning boshqaruv tizimidagi faollik darajasi 27 % ni tashkil etayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

T/r	Ko'rsatkichlar	2025-yil 1-yanvar holatiga
1.	Siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning ulushi (foizda)	49
2.	Siyosiy partiyalarning rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning ulushi (foizda)	41
3.	Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi (foizda)	7,7 (2 nafar)
4.	Mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida rahbarlik (hokimlar) lavozimidagi xotin-qizlar ulushi (sonda)	2,4 % (5 nafar)





5.	<u>Boshqaruv lavozimlarida ishlovchi xotin-qizlar ulushi (foizda)</u>	30,1
6.	<u>Sudyalar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)</u>	14,6
7.	<u>Yetakchi xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar soni</u>	2
8.	<u>Davlat boshqaruv akademiyasida xotin-qizlarning rahbarlik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlar asosida o'qishni yakunlagan xotin-qizlarning ulushi (foizda)</u>	56
9.	<u>O'zbekistonning chet mamlakatlaridagi elchilari orasida xotin-qizlarning ulushi (foizda)</u>	0
10.	<u>Shaharlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan qizlarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan ushbu toifadagi qizlar ulushi (foizda)</u>	82
11.	<u>Shaharlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan o'g'il bolalarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan shu toifadagi o'g'il bolalar ulushi (foizda)</u>	84,2
12.	<u>Qishloqlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan qizlarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan shu toifadagi qizlar ulushi (foizda)</u>	80,5






13	<u>Qishloqlarda ta'lim olishi lozim bo'lgan imkoniyati cheklangan o'g'il bolalarning umumiy sonidan maktab ta'limiga qamrab olingan shu toifadagi o'g'il bolalar ulushi (foizda)</u>	83,1
14	<u>Ilmiy, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish sohalari bitiruvchilari orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)</u>	8,7
15	<u>1-4 sinflarda bolalarda o'qish va matematikani o'zlashtirish darajasi (foizda)</u>	98,6
16	<u>5-9 sinflarda o'quvchilarda adabiyot va matematikani o'zlashtirish darajasi (foizda)</u>	97,4
17	<u>Umumiy o'rta ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)</u>	70
18	<u>Umumiy o'rta ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida erkakalar ulushi (foizda)</u>	30
19	<u>O'rta maxsus, professional ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)</u>	53,6
20	<u>O'rta maxsus, professional ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)</u>	47,1
21	<u>Oliy ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)</u>	44





22	Oliy ta'lim sohasidagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)	57
23	Nodavlat ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	73,2
24	Nodavlat ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar orasida erkaklar ulushi (foizda)	26,8
25	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega ayollar soni	5182
26	Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega erakaklar soni	9732
27	Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega ayollar soni	783
28	Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega erkaklar soni	1974
29	Fertil yoshdagi ayollarni zamonaviy kontratseptiv vositalar bilan qamrab olish darajasi (foizda)	46,8
30	100 000 nafar xotin-qizlar orasida OIV infeksiyasi yuqgan ayollarlar intensiv ko'rsatkichi	7,8
31	100 000 nafar o'g'il bolalar (erkaklar) orasida OIV infeksiyasi yuqgan erkaklar intensiv ko'rsatkichi yuqganlar soni	13
32	Retrovirus terapiyadan foydalanayotgan OIV infeksiyali ayollar (foizda)	91,1%





33	Retrovirus terapiyadan foydalanayotgan OIV infeksiyali erkaklar (foizda)	86,5%
34	Aholi, ayniqsa yoshlar orasida OIV/OITS bo'yicha o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari miqdori	6113
35	Gender jihatlarni hisobga olingan holda ijtimoiy sohadagi ilmiy tadqiqotlar soni (foizda)	45,7
36	Yuridik shaxs tashkil etib, unga rahbarlik qilayotgan xotin-qizlar ulushi (foizda)	13,2
37	Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning ulushi (foizda)	10,5
38	Qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar ko'rsatish kesimida band bo'lgan xotin-qizlarning ulushi (foizda)	42,5
39	Qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar ko'rsatish kesimida band bo'lgan erkaklarning ulushi (foizda)	57,5
40	Umumiy band bo'lganlar orasida o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlarning ulushi (foizda)	42
41	Umumiy band bo'lganlar orasida o'zini o'zi band qilgan erkaklarning ulushi (foizda)	58





42	Umumiy bo‘lmagan soha qishloq xo‘jaligi bandligida norasmiy sektorda band bo‘lgan xotin-qizlarning ulushi (foizda)	68,8
43	Umumiy bo‘lmagan soha qishloq xo‘jaligi bandligida norasmiy sektorda band bo‘lgan erkaklar ulushi (foizda)	52,7
44	Shaxsiy yeriga (uy-joyiga) ega bo‘lgan aholi orasida xotin-qizlarning ulushi (foizda)	28,56
45	Shaxsiy yeriga (uy-joyiga) ega bo‘lgan aholi orasida erkaklarning ulushi (foizda)	71,44
46	Shahar hududida xususiy mulk egasi xotin-qizlar bo‘lgan firmalar ulushi (foizda) 1)	—
47	Shahar hududida xususiy mulk egasi erkaklar bo‘lgan firmalar ulushi (foizda) 1)	—
48	Qishloq hududida xususiy mulk egasi xotin-qizlar bo‘lgan firmalar ulushi (foizda) 1)	—
49	Qishloq hududida xususiy mulk egasi erkaklar bo‘lgan firmalar ulushi (foizda) 1)	—
50	Yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida xotin-qizlar ulushi (foizda)	43





51	Barcha ko‘rinishlarda kam ta‘minlangan hisoblanuvchi barcha yoshdagi xotin-qizlar ulushi (foizda) 1)	—
52	Barcha ko‘rinishlarda kam ta‘minlangan hisoblanuvchi barcha yoshdagi erkaklar ulushi (foizda) 1)	—
53	Mobil telefonga ega bo‘lgan xotin-qizlarning ulushi (foizda)	99
54	Mobil telefonga ega bo‘lgan erkaklarning ulushi (foizda)	99,2
55	Jamoat transportidan foydalanayotgan xotin-qizlar ulushi (foizda)	-
56	Jamoat transportidan foydalanayotgan erkaklar ulushi (foizda)	-
57	Rasman ishsiz deb hisoblanuvchi xotin-qizlarning ulushi (foizda)	7,3
58	Rasman ishsiz deb hisoblanuvchi erkaklarning ulushi (foizda)	3,8
59	Erkaklar va ayollar mehnatiga haq to‘lashdagi farq (foizda)	29
60	OAVda chop etilgan oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning o‘rnini oshirishga qaratilgan materiallar soni	4585
61	Bolalar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi, ularning savodxonligini oshirishga ko‘maklashuvchi teledasturlar soni	4880





Yuqoridagi ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, O'zbekistonda gender tenglik siyosati tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ayollar siyosat, ta'lim, sud, boshqaruv va xalqaro diplomatiya sohalarida faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, texnik, muhandislik va ishlab chiqarish yo'nalishlarida ayollar ishtirokini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab-chiqilmoqda.

Xorij tajribasi va amaliyoti

Ta'kidlash joizki, xalqaro miqyosda parlamentda ayollar salmog'ini oshirish uchun bugungi kunda Ispaniya, Finlyandiya va Fransiya singari davlatlarda boshqaruv lavozimlarida ayollar ulushi 50 foizni tashkil etadi. Avstriya, Belgiya hamda AQShda esa 2017-yildan buyon hukumat tarkibidagi ayollar soni sezilarli darajada ortib, hozirda 29 foizdan ziyod ko'rsatkich qayd etilmoqda. Shu bilan birga, Vengriya, Koreya va Portugaliya kabi mamlakatlarda bu raqam 18 foiz atrofida saqlanib qolmoqda.

Finlyandiyada siyosiy partiyalar qoshida assotsiatsiya sifatida ro'yxatdan o'tgan ayollar uyushmalari faoliyat yuritadi. Ular partiyaning yillik anjumanlarida, rahbariyat organlariga saylovlarda faol qatnashadi. Siyosiy partiyalar tarkibidagi xotin-qizlar tashkilotlarining faoliyati davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. Amalda har to'rt yilda bir marta parlament saylovlari va koalitsion hukumat muzokaralari yakunida "ayollarga oid dasturlar" uchun ajratiladigan mablag'lar belgilanadi. Hozirda bu xarajatlar partiyalarning siyosiy faoliyatini moliyalashtirish umumiy byudjetining 10 foizini tashkil etadi.

Norvegiyada esa 1978-yilda "Gender tengligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, 2016-yilda unga rahbarlik va boshqaruv lavozimlarida ayollar ulushini oshirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilgan. Mazkur qonun asosida ayollar va erkaklar uchun ta'lim olish, ish bilan ta'minlanish hamda kasbiy o'sish (meritokratiya) sohalarida teng imkoniyatlar kafolatlanadi. Barcha davlat qo'mitalari, kengashlar va boshqa muassasalarda har bir jins vakillarining kamida 40 foizdan kam bo'lmasligi sharti joriy etilgan. Hozirgi vaqtda hukumat tarkibidagi 18 vazirdan 7 nafari (39 %) ayollar hisoblanadi. Hukumat "Konservativ" hamda "Taraqqiyot" partiyalaridan ("Xristian demokrat" va "So'l" partiyalari ko'magida) shakllangan bo'lib, uchtasini ayollar boshqaradi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Islandiyada qabul qilingan “Ayol va erkaklarning teng maqomi hamda teng huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasiga binoan, davlat va mahalliy boshqaruv organlari, kengashlarda lavozim tayinlovlarida erkaklar va ayollar ulushi imkon qadar teng bo‘lishi lozim. Agar bir organda uch nafardan ortiq vakil mavjud bo‘lsa, ularning kamida 40 foizi bir jins vakillaridan iborat bo‘lishi shart. Ushbu talab davlat yoki munitsipal korxonalarining boshqaruv kengashlariga ham tatbiq etiladi.

Avstriyada esa davlat xizmati tizimida ayollar muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlanadi. “Teng munosabatda bo‘lish to‘g‘risida”gi Federal qonun asosida davlat idoralarida ayollar ulushi kamida 50 foiz bo‘lishi kerakligi ish beruvchiga majburiyat sifatida yuklatilgan. Agar ayrim sohalarda ayollar soni 50 foizdan kam bo‘lsa, bunday holat “kam vakillik” sifatida baholanadi va tegishli tashkilotlar ayollarni ishga jalb etish, ularni rag‘batlantirish orqali vaziyatni yaxshilash choralarini ko‘rishi lozim. Ushbu nisbatga erishilgunga qadar ayollarni ishga olish va lavozimga ko‘tarish doimiy tarzda amalga oshirilishi talab etiladi.

Shuningdek, Ispaniyada 2007-yil 22-martda qabul qilingan “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonun siyosiy partiyalarni saylov ro‘yxatlarida nomzodlarning kamida 40 foizini ayollar tashkil etishini ta‘minlashga majbur etadi. Birlashgan Arab Amirliklarida esa Prezidentning 2019-yildagi 1-sonli qaroriga muvofiq, parlamentda har bir amirlik vakillarining kamida 50 foizi ayollar bo‘lishi belgilangan. Fransiyada munitsipal saylovlarda “bitta erkakka bitta ayol” prinsipi amal qiladi va hozirda mahalliy kengashlarda bu tenglik qat‘iy rioya qilinadi. Ukrainada esa 2020-yilgi saylovlarda siyosiy partiyalarning nomzodlar ro‘yxatini shakllantirishda 40 foizlik majburiy kvota qonunchilik asosida mustahkamlandi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta‘minlash so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ta‘lim sohalaridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni gender tenglikni huquqiy jihatdan mustahkamlab, bu sohada aniq mexanizmlarni belgilab berdi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Shuningdek, 2021–2030-yillarga mo‘ljallangan “Gender tenglikni ta’minlash strategiyasi” qabul qilinib, unda siyosat, ta’lim, mehnat, iqtisodiyot va ijtimoiy himoya sohalarida ayollar uchun teng imkoniyatlarni yaratish choralari ko‘zda tutilgan. Bu hujjatlar ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlash uchun huquqiy asos yaratdi.


Bugungi kunda mamlakatda ayollar siyosiy partiyalar, parlament va mahalliy kengashlarda, shuningdek sudyalar, vazirliklar va hokimliklar tizimida faol ishtirok etmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi ayollar ulushi 32 foizdan oshgani, bu esa BMT tomonidan tavsiya etilgan darajadan yuqori ekani — O‘zbekistonning gender siyosati samaradorligini ko‘rsatadi. Ta’lim sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Qizlarning maktab, kollej va oliy ta’limda o‘qish ko‘rsatkichi yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda qiz bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni kasb-hunar o‘rganishga jalb etish borasida sezilarli natijalar mavjud. Shu bilan birga, ilmiy, texnik va muhandislik sohalarida ayollar ulushini oshirish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, ayrim yo‘nalishlarda muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Jumladan, yuqori rahbarlik lavozimlarida, ilmiy tadqiqot institutlarida, ishlab chiqarish va texnik sohalarda ayollar ulushi hali past. Shu sababli gender siyosatini izchil davom ettirish, ayollar salohiyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, ularni qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishga undovchi rag‘batlantiruvchi tizimni kuchaytirish zarur. Umuman olganda, gender tenglikni ta’minlash O‘zbekistonning demokratik jamiyat va kuchli fuqarolik institutlarini barpo etish yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqli ishtiroki jamiyatdagi barqarorlikni, ijtimoiy adolatni va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Shu bois, gender siyosatini izchil amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollar faolligini oshirish — mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan eng muhim shartlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. VMQ- 285-sonli “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi

3. O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni
4. Ф.давронова ўзбекистонда хотин-қизларнинг сиёсий партия фаолиятидаги иштироки: миллий ва хорижий тажриба. мақола
https://www.researchgate.net/publication/358844190_Uzbekistonda_hotin-kizlarning_siesij_partia_faoliyatidagi_istiroki_millij_va_horizij_tazriba
5. “2030-YILGA QADAR O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASINI TASDIQLASH HAQIDA” O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING QARORI
<https://lex.uz/docs/-5466673>
6. Davlat boshqaruvida xotin-qizlarning ulushi qancha bo‘lishi kerak?
<https://adliya.uz/ru/posts/davlat-boshqaruvida-xotin-qizlar>
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi <https://gender.stat.uz/uz/>





GRETl AMALIY DASTURIY PAKETIDA SURXONDARYO VILOYATI CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMINING ASOSIY KO`RSATKICHLARI ARIMA MODELI

Normamatova Yulduz Ravshan qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari ARIMA modeli yordamida ekonometrik tahlil qilindi. Tadqiqotda 2010–2022-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlardan foydalanilib, vaqtli qatorlarning stasionarligi kengaytirilgan Dikki–Fyuller testi orqali tekshirildi. Modelning optimal shakli ARIMA(3,2,0) ko'rinishida aniqlanib, uning parametrlarini baholash natijasida pseudo $R^2 \approx 0,95$ va McFadden $R^2 \approx 0,94$ ko'rsatkichlari olindi. Bu esa modelning yuqori aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, MAPE = 8,87% bo'lib, prognoz natijalari ishonchli deb baholandi. ARIMA modeli asosida 2025–2029-yillarga mo'ljallangan chakana savdo aylanmasining prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari viloyat iqtisodiyoti uchun istiqbolli rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va ichki bozor barqarorligini ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ARIMA modeli, Gretl dasturi, ekonometrik modellashtirish, vaqt qatori, chakana savdo aylanmasi, Surxondaryo viloyati, prognozlash, statistik tahlil.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar turli sohalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishning o'zni va ahamiyati haqida o'z fikr va mulohazalarini keltirib o'tishgan. Iqtisodchi olimlar R.X.Alimov, A.A.Almuradov, S.O. Xomidovlar fikricha „Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida o'zgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarini ilg'ab olish, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilishda ekonometrik usullar va modellardan foydalanish yordamida makroiqtisodiy indikatorlarni prognozlash, ko'p variantli yechimlardan muqobil yechimni tanlash, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida optimal iqtisodiy qarorlar qabul qilish, muhim ahamiyat kasb etadi¹.

¹ Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. Ekonometrik modellashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 122 b.



Iqtisodiyotda vaqtli qatorlar statsionar yoki statsionar bo‘lmagan qatorlarga ajratilib o‘rganiladi va statsionar qatorlarni prognoz parametrlarini aniqlashda integratsiyalashgan avtoregressiya va sirg‘aluvchi o‘rtacha (Autoregressive Integrated Moving Average - ARIMA) modelidan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Statsionar vaqtli qator - vaqt davomida o‘rtachasi, dispersiyasi, avtokorrelyatsiyasi kabi statistik hususiyatlari o‘zgarmas bo‘lgan vaqtli qatordir. Agar vaqtli qator statsionar bo‘lmasa, u holda uning birinchi yoki keyingi farqlariga o‘tiladi².

Surxondaryo viloyati chakana savdosining asosiy ko‘rsatkichlarini 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlarini aniqlash uchun ARIMA modeli qo‘llanildi.

$$ARIMA(p, d, q) \tag{1.1}$$

bu yerda p - avtoregressiya tartibi, q – sirg‘aluvchi o‘rtacha tartibi, d – integratsiyalanganlik darajasi.

Modelning matematik ko‘rinishi esa:

$$\Delta^d y_t = c + \sum_{i=1}^p \alpha_i \Delta^d y_{t-1} + \sum_{i=1}^q \beta_i \cdot \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t^3 \tag{1.2}$$

Bu yerda c, α_i, β_i – model parametrlari, $\Delta^d - d$ tartibli opertorlar farqi.


Surxondaryo viloyati 2010-2022-yillarda chakana savdoning asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida shakllantirildi (1.1-rasm).

Surxondaryo viloyati ichki savdosida asosiy iqtisodiy holatni belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu chakana savdo aylanmasi ko‘rsatkichi hisoblanadi.

² Kasyoki A. Simple Steps for fitting ARIMA model to time series data for forecasting using R. // International Journal of Science and Research (IJSR), Volume 4, Issue 3, March 2015.

³ ТУРАЕВ Б.Э. АРИМА модели ёрдамида қурилиш ишлари ҳажмини прогноз қилиш (Сурхондарё вилоятида мисолида). “UzBridge” электрон журналы. I – сон июнь, 2021 йил 74 – 84 саҳифалар






1.1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2010-2022-yillarda chakana savdo aylanmasi hajmi, mlrd soʻmda⁴

Ushbu koʻrsatkichni kelajakdagi qiymatlarini prognozlashtirish ichki savdo tarmogʻida muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish, resurslarni boshqarish, eksport salohiyatini oshirishda va kelgusida aholi aholi farovonligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, biz Surxondaryo viloyati ichki savdo tarmogʻida ishlab chiqarilgan chakana savdo hajmi koʻrsatkichini prognozlashtiramiz. ARIMA modelini tuzishda Gretl dasturidan foydalanamiz⁵.

Maʼlumki, ekonometrik modellashtirishning dastlabki bosqichi Spetsifikatsiyalash bosqichi boʻlib, ushbu bosqichda vaqtli qatorlarning statsionar yoki statsionar emasligini tekshirish, qoldiqlarda avtokorelliyatsiya mavjudligini aniqlash, model tartibini belgilash kabi amallar bajariladi.

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi maʼlumotlari asosida shakllantirildi.

⁵ <https://gretl.sourceforge.net/win32/>





Dastlab 2010-2022-yillar oralig‘idagi chakana savdo aylanmasi hajmi qatorining stasionar yoki stasionar emasligini tekshiriladi.(1-ilova). Tekshirish natijasida vaqtli qatorlarning stasionar emasligi aniqlandi. Shu sababli ikkinchi farqlar stasionarligini tekshirish o‘rinli bo‘ladi. Buning uchun kengaytirilgan Dikki-Fyuller testi qo‘llanildi (1.1-jadval).

1.1-jadval

Surxondaryo viloyatining chakana savdo aylanmasi hajmi bo‘yicha kengaytirilgan Dikki-Fyuller testi natijalari⁶

Augmented Dickey-Fuller test for d_d_Y
testing down from 2 lags, criterion AIC
sample size 8
unit-root null hypothesis: $a = 1$

test without constant
including 2 lags of $(1-L)d_d_Y$
model: $(1-L)y = (a-1)*y(-1) + \dots + e$
estimated value of $(a - 1)$: -4.78156
test statistic: $\tau_{nc}(1) = -6.13235$
asymptotic p-value 2.274e-09
1st-order autocorrelation coeff. for e: 0.395
lagged differences: $F(2, 5) = 10.648 [0.0158]$

test with constant

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan





including 2 lags of $(1-L)d_d Y$
 model: $(1-L)y = b_0 + (a-1)*y(-1) + \dots + e$
 estimated value of $(a - 1)$: -4.78822
 test statistic: $\tau_c(1) = -5.70543$
 asymptotic p-value 5.925e-07
 1st-order autocorrelation coeff. for e: 0.354
 lagged differences: $F(2, 4) = 9.093 [0.0325]$

Shuningdek, vaqtli qatorlarning 2-tartibli ayirmalari o'zgarmasli test natijalariga ko'ra statsionar ($p = 2,274 * e^{-9}$) va o'zgarmassiz test natijalariga ko'ra ($p = 5,925 * e^{-7}$) statsionarlighi ma'lum bo'ldi.

1.1-jadvaldan o'zgarmasli va o'zgarmassiz test natijalari ham ikkinchi farqlarining statsionarlighini ko'rsatmoqda. Bunda – qiymat istalgan erkinlik darajalaridan kichik. Demak $d = 2$ qiymatni qabul qiladi.

Agar vaqtli qatorlar darajalari qiymatlari keyingi darajalar qiymatlariga bog'liq bo'lsa, qatorda tendensiya yoki sikl mavjud bo'ladi⁷. Viloyat chakana savdo aylanmasi hajmi vaqtli qatorida avtokorrelyatsiya mavjud emasligini 2-ilovadagi korrelogrammadan ko'rish mumkin.

Ma'lumki, *ACF* kamayuvchi bo'lib, *PACF* esa p davridan keyin uzilsa, jarayon avtoregressiyaga xos bo'ladi⁸. Bizni tahlillarimizda bunday holat aniqlanmadi.

Model tartibini belgilab olamiz.

$$\text{ARIMA}(3,2,0) \quad (1.3)$$

ARIMA modelining matematik ko'rinishini yozamiz.

$$\Delta^2 y_t = -1.12431 \Delta^2 y_{t-1} - 1.13949 \Delta^2 y_{t-2} - 0.769579 \Delta^2 y_{t-3} + \varepsilon \quad (1.4)$$

Bu yerda c, α_i, β_i – model parametrlari, Δ^d – d tartibli opertorlar farqi.

⁷ Шалабанов А.К., Роганов Д.А. Эконометрика: Учебно-методическое пособие. Казань, Академия Управления «ТИСБИ», 2008 – 107 стр.

⁸ Исмагилов И.И., Кадочникова Е.И.. Специальные модели эконометрики в среде Gretl: учебное пособие для студентов, обучающихся по направлению 38.04.01 «Экономика» – Казань: Казан. ун-т. 2018 – 91 с.



Endi model parametrlarini baholaymiz(1.2-jadval).

1.2-jadval

Model parametrlarini baholash natijalari⁹

Model 11: ARIMA, using observations 2012-2022 (T = 11)

Dependent variable: $(1-L)^2 Y$


Standard errors based on Hessian

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
phi_1	-1.12431	0.180517	-6.228	<0.0001	***
phi_2	-1.13949	0.168351	-6.769	<0.0001	***
phi_3	-0.769579	0.168371	-4.571	<0.0001	***

Mean dependent var	28.41818	S.D. dependent var	1142.269
Mean of innovations	56.75437	S.D. of innovations	473.8188
R-squared	0.956616	Adjusted R-squared	0.945770
Log-likelihood	-85.39572	Akaike criterion	178.7914
Schwarz criterion	180.3830	Hannan-Quinn	177.7882

	<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequency</i>
AR				
Root 1	-1.1773	0.0000	1.1773	0.5000
Root 2	-0.1517	-1.0396	1.0506	-0.2731
Root 3	-0.1517	1.0396	1.0506	0.2731

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan





1.2-jadvaldagi model parametrlariga etibor qaratilsa, modelning barcha parametrlari Fisherning z mezonini bo'yicha ahamiyatli hisoblanadi.

Regression tahlil natijalari pseudo $R^2 \approx 0,95$, hamda McFadden $R^2 \approx 0,94$ ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida modelning sifatligini ifodalaydi¹⁰. Endi modelning o'rtacha absolyut foizli xatoligini tekshirilganda(1.2-rasm), uning qiymati $MAPE = 8,87\%$ ga tengligi aniqlandi.

Model estimation range: 2012 - 2022	
Forecast evaluation statistics using 11 observations	
Mean Error	56.754
Root Mean Squared Error	473.82
Mean Absolute Error	367.27
Mean Percentage Error	-0.45997
Mean Absolute Percentage Error	8.8706
<u>Theil's U2</u>	0.49568

1.2-rasm. Modelning approksimatsiya xatoligi¹¹


Bu esa approksimatsiya xatoligi me'yor chegarasidan oshmaganligini ko'rsatadi¹². Qoldiqlarda avtokorrelatsiyani tekshirildi va qoldiqlarda avtokorrelatsiya kuzatilmadi(1.3-rasm).

¹⁰ X.S.Muhiddinov,O.Q.Xatamov,A.N.Rahimov. Ekonometrika asoslari. O`quv qo`llanma. Qarshi: Intelektl nashriyoti 2021.-2875

¹¹ Muallif ishlanmasi

¹² X.S.Muhiddinov,O.Q.Xatamov,A.N.Rahimov. Ekonometrika asoslari. O`quv qo`llanma. Qarshi: Intelektl nashriyoti 2021.-2875






1.3-rasm. Qoldiqlarni normal taqsimot qonuniga bo‘ysinishi va korellogrammasi¹³

Keyingi qadamda qoldiqlarni normal taqsimot qonuniga bo‘ysinishi tekshirildi va $\alpha = 0,05$ qiymatidan yuqori ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi tahlillar modelning iqtisodiy jarayonlarga mosligini ko‘rsatadi. Shu asosida, Surxondaryo viloyati chakana savdo aylanmasi hajmini 2025-2029-yillar uchun prognoz qiymatlari hisob-kitob qilindi. Prognoz va haqiqiy qiymatlari grafigiga e‘tibor qaratsa, ularning grafigi bir biriga juda yaqinligini ko‘rishimiz mumkin(1.4-rasm). 1.4-rasmdan, 2025-2029-yillar uchun viloyatda chakana savdo aylanmasi hajmi prognoz qiymatlarini ishlab chiqildi.

¹³ Muallif ishlanmasi





1.4-rasm. Chakana savdo hajmining haqiqiy va prognoz qiymatlari chizmasi¹⁴.

1.3-jadval.

Chakana savdo hajmining 2010-2023-yillar uchun ishlab chiqarilgan va 2025-2029 - yillar uchun ishlab chiqarilishi kutilayotgan prognoz qiymati¹⁵

¹⁴ Muallif ishlanmasi

¹⁵ Muallif ishlanmasi





Yillar	Chakana savdo aylanmasi hajmi (mlrd soʻmda) haqiqiy qiymatlari	Nazariy qiymatlari	Standart xato	95% ishonch intervalining yuqori chegarasi	95% ishonch intervalining quyi chegarasi
2010	710.800				
2011	1629.60				
2012	1862.10	2164.32			
2013	1983.50	2153.64			
2014	2553.20	2604.73			
2015	3607.70	3273.63			
2016	3337.30	3691.80			
2017	4564.30	3659.07			
2018	5991.60	5244.37			
2019	6669.70	6507.05			
2020	5980.10	6809.53			
2021	7633.50	7527.78			
2022	8864.90	8787.68			
2023	10965,05	8953.50	473.819	9882.17	8024.83
2024	11680,30	9004.70	629.811	10239.1	7770.29
2025		10724.9	754.273	12203.3	9246.57





2026		11490.7	958.353	13369.1	9612.39
2027		11456.6	1323.05	14049.7	8863.42
2028		12124.9	1558.82	15180.1	9069.66
2029		13649,5	1797,79	17173,1	10125,9

Prognoz qiymatlariga e'tibor qaratilsa, 2029-yilga kelib Surxondaryo viloyati chakana savdo aylanmasi hajmi 13649,5 mlrd.so'mga yetishi va bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 1,16 barobar o'sishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stanislav Anatolyev "Ekonometrik modellashtirish, vaqt qatorlari tahlili, bozorlar prognozi " <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Aleksey Chernyaev va Olga Digilinalarning "Rossiya iqtisodiyotini raqamlashtirish: Sharq va G'arb o'rtasida" https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4982420
3. Abdumalik Soliyevning "Statistik modellashtirishda R dasturining qo'llanilishi " O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnallari.2020-yil
4. Turayev Baxtiyor Ergashevichning "Gretl muhitida maxsus ekonometrika modellari"2024-yil https://www.researchgate.net/publication/379829432_Gretl_muhitida_maxsus_ekonometrika_modellari
5. I.Usmonovanning "Django veb-ilovasi va Celery asenkron dvigatelini birgalikda foydalanish orqali ekonometrik model (ARIMA) hisob-kitoblarini onlayn rejimda tashkil etish " 2022-yil
6. Mamatqulov Jamshid Sonatovich "Python va Django arxitekturasida dinamik iqtisodiy model qurish" 2021-yil <https://doi.org/10.12345/uzeco.2021.0078>
7. Xudayberdiyev Ulug'bek Akromovich "Serverless computing va AWS Lambda asosida iqtisodiy jarayonlarni model qilish" <https://repository.uzbekistan.edu/serverless-model-2022>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

8. Abdusalomova Zebo Farhod qizi “WebAssembly va JavaScript orqali real-vaqtda iqtisodiy modellashtirish” 2023-yil <https://book.uit.uz/webassembly-economics-2023>
9. Ismoilov Azizbek Otakhonovich “Django va HPC: iqtisodiy modellarni yuqori quvvatli kompyuter tarmoqlarida ishga tushirish ” <https://uzhpc.uz/publications/ismailov-hpc-django-2021>
10. Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. Ekonometrik modellashtirish. O`quv qo`llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 122 b.
11. Kasyoki A. Simple Steps for fitting ARIMA model to time series data for forecasting using R. // International
12. ТУРАЕВ Б.Э. АРИМА модели ёрдамида курилиш ишлари хажмини прогноз қилиш (Сурхондарё вилоятида мисолида). “UzBridge” электрон журнали. I – сон июнь, 2021 йил 74 – 84 саҳифалар
13. Шалабанов А.К., Роганов Д.А. Эконометрика: Учебно-методическое пособие. Казань, Академия
14. X.S.Muhiddinov, O.Q.Xatamov, A.N.Rahimov. Ekonometrika asoslari. O`quv qo`llanma. Qarshi: Intelektl nashriyoti 2021.-2875
15. X.S.Muhiddinov, O.Q.Xatamov, A.N.Rahimov. Ekonometrika asoslari. O`quv qo`llanma. Qarshi: Intelektl nashriyoti 2021.-2875





QO‘ZIQORIN TOKSINLARI TA‘SIRIDA YURAK TO‘QIMASINING MORFOLOGIK TAHLILI

Bobojonova Gulnoza

gbobojonova995@gmail.com

RIRSIATM psixiatriya xizmati bo'yicha

Xorazm viloyati filiali mehnat yo‘riqchisi lavozimida

Annotatsiya


Mazkur maqolada qo‘ziqorin toksinlarining yurak to‘qimasi hujayralariga ko‘rsatadigan morfologik ta‘siri o‘rganilgan. Eksperimental tadqiqotlar davomida *Amanita phalloides* (oq qo‘ziqorin) va *Aspergillus flavus* kabi toksik qo‘ziqorin turlaridan ajratib olingan mikotoksinlarning (falotoksin va aflatoksin) yurak mushak hujayralarining (kardiomiositlarning) tuzilishiga, yadro morfologiyasiga hamda mitoxondrial tuzilmalarga ta‘siri tahlil qilingan. Morfologik o‘zgarishlar elektron mikroskop, gistokimyoviy bo‘yoqlash va morfometriya usullari orqali aniqlangan. Olingan natijalar statistik tahlil asosida baholandi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, qo‘ziqorin toksinlari yurak to‘qimasida distrofik va nekrotik o‘zgarishlar, mitoxondriyalarning shishishi, sarkoplazmatik retikulomning parchalanishi va yadro xromatini kondensatsiyasi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar yurak faoliyatining buzilishiga olib keluvchi asosiy patomorfologik mexanizmlar sifatida baholandi.

Kalit so‘zlar: qo‘ziqorin toksinlari, falotoksin, aflatoksin, yurak to‘qimasi, morfologiya, gistologiya, kardiomiosit, nekroz, mitoxondriya, elektron mikroskopiya, morfometriya.

Kirish

Organizmida qo‘ziqorin toksinlarining ta‘siri eng avvalo jigarda, buyrakda va yurakda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yurak mushak to‘qimasi – kardiomiositlar yuqori metabolik faollikka ega bo‘lgani sababli toksinlarga sezuvchan hisoblanadi. Yurak faoliyatining toksik zararlanishi turli etiologik omillar bilan kechishi mumkin, ammo ularning eng xavflilaridan biri qo‘ziqorin toksinlaridir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi toksikologik markazlar ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida qo‘ziqorin bilan zaharlanish holatlarining 27 foizida yurak faoliyati bilan bog‘liq o‘zgarishlar qayd



etilgan. Ushbu o'zgarishlarning asosiy morfologik sabablari hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, bu masala tibbiyot morfologiyasi sohasida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sanaladi.

Mazkur maqolada qo'ziqorin toksinlarining yurak to'qimasiga ko'rsatadigan morfologik ta'siri, gistostruktural o'zgarishlar, hujayra organellalaridagi degenerativ jarayonlar hamda bu jarayonlarning patofiziologik mexanizmlari ilmiy tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi

Qo'ziqorin toksinlari organizmga og'iz orqali, nafas yo'llari yoki teri orqali tushishi mumkin. Ularning eng toksik turlari orasida *Amanita phalloides*, *Aspergillus flavus* va *Penicillium citrinum* kabi qo'ziqorinlar keltiriladi. Ularning tarkibidagi falotoksin va aflatoksinlar yurak to'qimasidagi oqsil sintezini buzadi, lipid peroksidatsiyasini kuchaytiradi va natijada hujayra membranasining barqarorligi pasayadi (Petrov et al., 2021; Karimov, 2023).

Eksperimental tadqiqotlarda (Matsumoto, 2019) aflatoksinning yuqori konsentratsiyasi natijasida kardiomyositlar mitoxondriyasida kristallar parchalanishi, matritsaning shishishi, yadro xromatini periferiyaga siljishi kuzatilgan. O'zbekiston olimlari (Abduraxmonov, 2022; Rasulov, 2024) tomonidan o'tkazilgan morfologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, toksinlarning yurak to'qimasiga ta'siri doimiy hipoksiya holatini vujudga keltiradi va bu jarayon morfologik jihatdan distrofik o'zgarishlar orqali ifodalanadi.


Biroq, hozirgi kungacha qo'ziqorin toksinlarining yurak hujayralari strukturasi ta'sir mexanizmlarini batafsil tavsiflovchi morfometrik tahlillar kam o'rganilgan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Asosiy qism

Tadqiqot obyekti sifatida laboratoriya kalamushlari (Wistar turi, 180–220 g) tanlandi. Ular 3 guruhga bo'lindi:

1. Nazorat guruhi (n = 10) – sog'lom hayvonlar;
2. Falotoksin guruhi (n = 10) – 0,2 mg/kg doza bilan 5 kun davomida yuborildi;
3. Aflatoksin guruhi (n = 10) – 0,3 mg/kg doza bilan 5 kun davomida yuborildi.

Yurak to'qimalari parafin bloklarda tayyorlandi, gistologik bo'yoqlash (hematoksilin-eozin, Masson trixrom), elektron mikroskopiya (JEOL JEM-1400) va morfometrik tahlil o'tkazildi.



1-rasm. Qo‘ziqorin toksinlari ta‘sirida yurak to‘qimasida kuzatilgan asosiy morfologik o‘zgarishlar

(Rasmda: mitoxondriya shishishi, sarkoplazma vakuolizatsiyasi, yadro xromatinining kondensatsiyasi, sarkomerlarning parchalanishi ko‘rsatilgan.)

Rasmda yurak mushak to‘qimasi - miokardning gistologik kesimi (hematoksilin–eozin bo‘yoqlashda) tasvirlangan bo‘lib, unda qo‘ziqorin toksinlari ta‘siridan kelib chiqqan asosiy morfologik o‘zgarishlar aniq ko‘rinadi. Ushbu o‘zgarishlar yurak kardiomyositlarining ultrastrukturasida kechadigan toksik-distrofik jarayonlarni ifodalaydi.

1. Mitoxondriya shishishi

Rasming chap yuqori qismida mitoxondriya shishgan holatda tasvirlangan. Bu o‘zgarish toksinlarning mitoxondriya membrana kompleksiga (ATP-sintetaza, sitoxrom-oksida) to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘siri natijasida yuzaga keladi. Shishish mitoxondrial matritsaning suv bilan to‘lishi, kristalarning parchalanishi va membrana potensialining yo‘qolishini bildiradi. Bu jarayon energiya ishlab chiqarishning to‘xtashiga va hujayraning energiya yetishmovchiligi holatiga olib keladi.

2. Sarkoplazma vakuolizatsiyasi



Rasmning o'rta qismida sarkoplazmada ko'plab yengil bo'yoqlangan bo'shliqchalar (vakuolalar) ko'rinadi. Bu holat - gidropik distrofiyaning tipik belgisi bo'lib, hujayra ichida suv va ionlarning to'planishi natijasida hosil bo'ladi. Qo'ziqorin toksinlari Na^+/K^+ -ATPaza fermentining faoliyatini pasaytiradi, natijada hujayra membranasini ionlarni tashib bera olmaydi, suv ichkariga kirib vakuolalar hosil qiladi. Bu jarayon hujayra shishishi, plazma bo'shshishi va membrana barqarorligining buzilishi bilan davom etadi. Bu holat yurak mushaklarining qisqarish kuchini kamaytiradi va miokardning toksik distrofiyasini yuzaga keltiradi.

3. Yadro xromatinining kondensatsiyasi

Rasmning o'ng yuqori qismida yadro sohasida xromatin zichlashgan (kondensatsiya) holatda ko'rinadi. Bu morfologik belgilar apoptoz va kariopiknoz jarayonlarini ko'rsatadi. Qo'ziqorin toksinlari ta'sirida DNK sintezi buziladi, xromatin periferiyaga siljiydi, yadro hajmi kichrayadi. Bu holat kardiomyositlarning replikatsion faolligi pasayganini, ya'ni ularning tiklanish qobiliyati cheklanganini anglatadi. Shuningdek, bu jarayon apoptotik hujayra o'limi uchun tipik belgidir.

4. Sarkomerlarning parchalanishi

Rasmning o'ng pastki qismida sarkomerlarning uzilishi va miofibrillalarning notekis yo'nalishi aniq ko'rinadi. Bu - kardiomyosit ichki tuzilmasining mexanik barqarorligi yo'qolganidan dalolat beradi. Qo'ziqorin toksinlari aktin va miozin filamentlari orasidagi o'zaro bog'lanishni buzadi, bu esa yurak mushak qisqarish mexanizmining izdan chiqishiga olib keladi. Ushbu jarayon natijasida yurak qisqaruvchanligi pasayadi, elektrofiziologik muvozanat buziladi va aritmogen o'zgarishlar uchun sharoit yaratiladi.

Qo'ziqorin toksinlari ta'sirida yurak to'qimasida kuzatilgan morfologik o'zgarishlar kardiomyositlarning strukturaviy va funksional holatida chuqur buzilishlarni keltirib chiqaradi. Mikroskopik kuzatuvlarda aniqlanishicha, toksinlar yurak mushak hujayralarida ketma-ket rivojlanadigan distrofik va nekrotik jarayonlarga sabab bo'ladi.

Birinchidan, mitoxondriya shishishi hujayra energiya almashinuvining izdan chiqishiga olib keladi. Mitoxondriyalar matritsasining shishib, kristalarning parchalanishi natijasida oksidativ fosforlanish jarayoni to'xtaydi, ATP ishlab chiqarilishi keskin





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

kamayadi. Bu energiya tanqisligi kardiomyositlarning asosiy qisqaruvchan elementlari - aktin va miozin tizimining faoliyatini buzadi.

Ikkinchidan, sarkoplazma vakuolizatsiyasi toksik shikastlanishning erta morfologik belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Vakuolalar hosil bo‘lishi Na^+/K^+ -ATPaza fermentining faoliyatining susayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holatda hujayra ichida suv va ionlar haddan tashqari to‘planadi. Natijada hujayra sitoplazmasi shishadi, ichki bosim ortadi va hujayra membranasining barqarorligi buziladi. Bu jarayonlar yurak mushaklarining qisqarish qobiliyatini zaiflashtiruvchi patofiziologik asosni yaratadi.

Uchinchidan, yadro xromatinining kondensatsiyasi va yadro shaklining o‘zgarishi DNK sintezining to‘xtaganidan, yadro moddasining qisqarishidan va hujayraning replikatsion faoliyati pasayganidan dalolat beradi. Bunday o‘zgarishlar kardiomyositlarda qaytarilmas degeneratsiya boshlanganini ko‘rsatadi. Yadro kondensatsiyasi ko‘pincha kariopiknoz yoki apoptoz jarayonlari bilan yakunlanadi, bu esa hujayra o‘limining morfologik belgisi sifatida qayd etiladi.

To‘rtinchidan, sarkomerlarning parchalanishi yurak mushak to‘qimasining eng og‘ir strukturaviy shikastlanishidir. Sarkomerlar uzilib, miofibrillalarning yo‘nalishi buzilganligi kontraktil mexanizmlarning izdan chiqqanini anglatadi. Natijada yurak mushak tolalari o‘zaro muvofiqlikni yo‘qotadi, qisqaruvchanlik pasayadi va yurakning mexanik faolligi susayadi.

Ushbu o‘zgarishlarning barchasi bosqichma-bosqich kechadi: dastlab hujayra energetik tanqisligi paydo bo‘ladi, so‘ngra suv-elektrolit muvozanati buziladi, yadro tuzilmasida degeneratsiya boshlanadi va nihoyat to‘qima darajasida nekrotik o‘choqlar shakllanadi.

Shunday qilib, qo‘ziqorin toksinlari yurak to‘qimasida morfologik nuqtayi nazardan distrofik, gidropik, apoptoz va nekrotik o‘zgarishlarni qo‘zg‘atadi. Bu o‘zgarishlar yurakning kontraktil faolligi, elektr o‘tkazuvchanligi va energetik muvozanatini izdan chiqarib, klinik jihatdan toksik kardiomyopatiya va aritmogen sindromlar rivojlanishiga olib keladi.

Natijada aytish mumkinki, yurak to‘qimasi qo‘ziqorin toksinlariga nisbatan yuqori sezuvchan bo‘lib, bu sezuvchanlik morfologik darajada hujayra ichki tuzilmalari - mitoxondriya, yadro va miofibrillar tizimlarning ketma-ket shikastlanishi orqali





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

ifodalanadi. Ushbu tahlillar toksikologik morfologiya sohasida yurak zararlanishining asosiy patogenetik mexanizmlarini aniqlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval.

Yurak to‘qimasidagi asosiy morfometrik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi (2024-yil natijalari bo‘yicha)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Falotoksin guruhi	Aflatoksin guruhi	O‘zgarish darajasi, %
Kardiomiosit diametri (mkm)	14,2 ± 0,8	10,7 ± 0,6	9,9 ± 0,7	-29 %
Yadro indeksi (Y/I)	1,00	0,68	0,63	-37 %
Mitoxondriya soni (1 μm ² da)	12,4 ± 0,9	8,3 ± 0,7	7,5 ± 0,5	-39 %
Sirkoplazmatik vakuolalar foizi	2,3 %	15,8 %	18,6 %	+700 %
Nekrozga uchragan hujayralar ulushi	1,1 %	12,3 %	16,4 %	+1380 %

Yuqoridagi jadval yurak mushak to‘qimasida qo‘ziqorin toksinlari ta‘siridan kelib chiqqan morfologik va ultrastruktur o‘zgarishlarni aniq ifodalaydi. Ma’lumotlar asosida yurak to‘qimasida yuzaga kelgan degenerativ, distrofik va nekrotik jarayonlar turli darajada namoyon bo‘lganligi kuzatiladi. Quyida har bir ko‘rsatkich bo‘yicha tahlil keltirilgan:

1. Kardiomiosit diametri

Nazorat guruhidagi o‘rtacha kardiomiosit diametri 14,2 ± 0,8 mkm bo‘lgan bo‘lsa, falotoksin guruhi hayvonlarida bu ko‘rsatkich 10,7 mkm gacha, aflatoksin guruhi





hayvonlarida esa 9,9 mkm gacha kamaygan. Bu taxminan 29 foizlik atrofik o'zgarishni anglatadi.

Kardiomiosit diametrining qisqarishi yurak mushak hujayralarida sitrik kislota sikli va oksidativ fosforlanish jarayonlarining pasayganligidan dalolat beradi. Bu holat, ehtimol, toksinlarning oqsil biosinteziga ta'siri natijasida miofibrillalarning parchalanishi, aktin-miozin kompleksining dissosiasiyasi bilan bog'liq.

Elektron mikroskop tahlili ham bu jarayonni tasdiqlaydi: hujayralar sitoplazmasida sarkomerlar orasidagi masofa kengaygan, miofibrillar yo'nalishi buzilgan, bu esa yurak qisqaruvchanligining zaiflashuviga olib keladi. Shu sababli, diametr pasayishi kardiomiositlarning morfometrik darajada energiya yetishmovchiligi va to'qima gipoksiyasining aniq belgisi sifatida talqin qilinadi.

2. Yadro indeksi (Y/I)

Yadro indeksi (yadro maydoni va hujayra maydoni nisbati) yurak hujayrasining regenerativ faolligi va nukleoprotein sintezi holatini ifodalaydi. Nazoratda bu ko'rsatkich 1,0 ga teng bo'lsa, falotoksin guruhi 0,68, aflatoksin guruhi esa 0,63 ni tashkil etgan. Bu 37 foizlik pasayish yadro xromatinining kondensatsiyasi, yadro membranasi deformatsiyasi va DNK sintezining sekinlashuvi bilan bog'liq.


Mikroskopik kuzatuvlarda yadro shaklining notekisligi, xromatinning periferiyaga siljishi va kariopiknoz belgilari aniqlangan. Bu morfologik belgilar apoptoz va nekroz oralig'idagi subletal o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Yadro indeksi pasaygan hujayralarda ribosomal RNK sintezi ham kamayadi, bu esa oqsil sintezini to'xtatadi va yurak mushak hujayralarining regenerativ imkoniyatlarini keskin cheklaydi.

3. Mitoxondriya soni ($1 \mu\text{m}^2$ da)

Mitoxondriya yurak mushak hujayralarining eng muhim energetik organellalaridir. Ularning soni nazoratda $12,4 \pm 0,9$ bo'lsa, falotoksin guruhi $8,3 \pm 0,7$, aflatoksin guruhi $7,5 \pm 0,5$ ni tashkil etgan. Bu 39 foizga kamayish degani.

Bu holat oksidativ stress va lipoperoksidatsiya natijasida mitoxondriya membranalarining shikastlanishi bilan bog'liq. Elektron mikroskop tasvirlarida mitoxondriyalar matritsasi shishgan, kristalari parchalanib ketgan, ba'zilarida membrana uzilishi qayd etilgan.





Shuningdek, mitoxondriyalar sonining kamayishi ATP ishlab chiqarishning izdan chiqishini ko'rsatadi. Yurak hujayralari ATP yetishmovchiligiga nihoyatda sezgir bo'lgani sababli, bu o'zgarish yurak ritmining buzilishi va kardiotoksik aritmiyalar uchun morfologik asos hisoblanadi.

4. Sarkoplazmatik vakuolalar foizi

Vakuolalar hujayra ichida suv va ionlar to'planishi natijasida hosil bo'lib, distrofik jarayonlarning eng erta morfologik belgilaridan biridir. Nazoratda ularning foizi 2,3 % bo'lgan, falotoksin guruhida 15,8 %, aflatoksin guruhida esa 18,6 % gacha ko'tarilgan. Bu 700–800 % ga ortish demakdir.

Vakuolizatsiyaning bunday darajada kuchayishi Na^+/K^+ -ATPaza fermentining faoliyatining pasayishi va hujayra membranasining ion o'tkazuvchanligining buzilishi bilan bog'liq. Natijada hujayra ichiga suv kirib, sitoplazma shishadi va vakuolalar paydo bo'ladi.

Morfologik jihatdan bu jarayonlar gidropik distrofiyalar, keyingi bosqichda esa kolloid degeneratsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu holat yurak to'qimasida shish, bo'shashganlik va sarkoplazmaning notekis bo'yalishi ko'rinishida mikroskopda aniq ko'rinadi.

5. Nekrozga uchragan hujayralar ulushi

Eng og'ir morfologik o'zgarishlar nekrotik jarayonlarda ifodalanadi. Nazoratda bu ko'rsatkich 1,1 % bo'lgan bo'lsa, falotoksin guruhida 12,3 %, aflatoksin guruhida esa 16,4 % ni tashkil etgan - bu taxminan 14 barobar ortish demakdir.

Nekrozga uchragan hujayralarda sarkolemma butunligi buzilgan, yadro piknozga uchragan yoki butunlay yo'qolgan, sitoplazma eozinofilik bo'yoq bilan to'yingan. Ushbu belgilar koagulasion nekroz turiga xosdir.

Falotoksin guruhi hayvonlarida nekroz asosan subendokardial sohada, aflatoksin guruhi esa miokardning o'rta qatlamlarida keng maydonlarni egallagan. Bu yurak to'qimasida mikrosirkulyatsiya buzilishi, kapillyar spazm va reperfuziya zararlanishi kabi mexanizmlarni aks ettiradi.

Bundan tashqari, nekroz o'choqlarining atrofida limfotsitar infiltratsiya va fibroblastlarning proliferatsiyasi aniqlangan, bu esa keyingi bosqichda postnekrotik fibroz rivojlanishiga olib kelishi mumkin.





Qo'ziqorin toksinlari yurak mushak hujayralarida ketma-ket morfologik bosqichlar orqali o'z ta'sirini namoyon qiladi:

1. dastlab mitoxondriya faoliyati pasayadi (energiya yetishmovchiligi);
2. keyin vakuolizatsiya va hujayra shishishi boshlanadi;
3. yadro strukturasi buzilib, DNK sintezi to'xtaydi;
4. natijada hujayralar nekrozga uchraydi va to'qima morfologik yaxlitligini yo'qotadi.

Bu tahlillar yurak to'qimasida qo'ziqorin toksinlari ta'siri bilan kechuvchi toksik kardiodistrofiya mexanizmlarini chuqurroq yoritadi va morfologik tashxis uchun asosiy mezonlarni shakllantiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qo'ziqorin toksinlari yurak to'qimasi morfologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Falotoksin va aflatoksinlar yurak mushak hujayralarida degenerativ va nekrotik jarayonlarni qo'zg'atib, hujayra membranasining yaxlitligini buzadi, mitoxondriyalarning energiya ishlab chiqarish imkoniyatini cheklaydi hamda sarkoplazmatik vakuolalar sonini keskin oshiradi.

Morfometrik tahlillar asosida aniqlanishicha, aflatoksin ta'siri ostida yurak hujayralarining diametri 30 foizga kamayadi, nekrozga uchragan hujayralar ulushi esa 15 foizdan oshadi. Ushbu o'zgarishlar yurak faoliyatining toksik zararlanishida morfologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, qo'ziqorin toksinlari bilan zaharlanishda yurak faoliyatini kuzatish, morfologik diagnostika va toksinlarning yurak to'qimasiga ta'sir mexanizmini erta aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masaladir. Kelgusida qo'ziqorin toksinlariga qarshi antioksidant va membranoprotektor preparatlarning ta'sirini o'rganish bu yo'nalishda istiqbolli natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Petrov V., et al. (2021). *Mycotoxins and cardiac tissue degeneration: experimental analysis*. J. Morphological Sciences, 14(2), 112–120.
2. Karimov Sh. (2023). *Qo'ziqorin toksinlarining yurak faoliyatiga ta'siri*. Tibbiyot va Biologiya jurnali, №3, 42–48.
3. Matsumoto H. (2019). *Mitochondrial damage under aflatoxin exposure in cardiac cells*. Toxicology Reports, 6(4), 215–224.



4. Abduraxmonov A., Rasulov M. (2024). *Yurak to'qimasi morfologiyasi va toksinlarning ta'siri*. Tibbiyot fanlari axboroti, №1, 55–63.
5. WHO. (2023). *Mycotoxins and human health risk assessment*. Geneva: World Health Organization.
6. O'zbekiston SSV toksikologiya markazi ma'lumotlari, 2024-yil.
7. Ivanova L. (2022). *Cardiotoxic effects of fungal metabolites*. Experimental Pathology Journal, 18(1), 76–84.
8. <https://who.int>
9. <https://toxnet.nlm.nih.gov>
10. <https://researchgate.net>

“DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR TAHLILI”

Ibragimova Gavhar Shuxrat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Demografik o‘zgarishlarning jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Aholining tabiiy harakati, tug‘ilish va o‘lim darajasi, migratsiya jarayonlari, yosh tarkibining o‘zgarishi hamda urbanizatsiya jarayonlari asosiy tahlil obyekti sifatida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, demografik jarayonlar mehnat bozorining shakllanishi, iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, ijtimoiy infratuzilma va bandlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shu bois, demografik o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida iqtisodiy siyosatni shakllantirish dolzarb masalalardan biri sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: demografik o‘zgarish, tabiiy o‘sish, migratsiya, yosh tarkibi, urbanizatsiya, mehnat bozori, iqtisodiy o‘sish.

Kirish

Demografiya ([qadimgi yunoncha](#): δῆμος - demos — xalq va γράφω - grafiya) — har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog‘lik holda o‘rganadigan fan. Demografik omil jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u aholining soni, tarkibi va hududiy taqsimoti orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni belgilaydi. Zamonaviy davrda demografik jarayonlarning global miqyosda o‘zgarishi ko‘plab davlatlar uchun asosiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Tug‘ilish darajasining pasayishi, aholining keksayishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, urbanizatsiya va hududiy nomutanosibliklar nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki mehnat bozori, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy infratuzilma tizimlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Har qanday ishlab chiqarish jarayoni mohiyatan **ijtimoiy ishlab chiqarish** hisoblanadi. Unda mehnat predmetlari, mehnat qurollari, ishchi kuchi va boshqa omillar ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchining takror hosil qilinishi, ularning sifat va miqdor jihatidan shakllanishi ham demografik jarayonlarga bog‘liqdir. Shuning uchun





demografik o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini baholashda muhim metodologik asosdir.


Demografik jarayonlarning iqtisodiyotga ta'siri qadimdan iqtisodiy tafakkur markazida bo'lgan. T. Maltus aholining haddan tashqari tez o'sishi resurslar tanqisligiga olib kelishini ta'kidlagan bo'lsa, zamonaviy olimlar bu jarayonni **“demografik dividend”** nuqtai nazaridan baholaydilar. Masalan, D. Blum va D. Kennig (2010) yosh aholining mehnat bozoriga kirib kelishi iqtisodiy o'sishga kuchli turtki berishi mumkinligini ko'rsatgan.

Lee va Mason (2017) esa, aholining keksayib borishini iqtisodiy o'sishga xavf sifatida ko'rib, uni moliyaviy bosim (pensiya va tibbiy xarajatlarning ortishi) bilan izohlagan. Jahon banki (2020) va BMT (2021) hisobotlarida migratsiya oqimlarining global mehnat bozorini shakllantirishdagi roli alohida ta'kidlangan.



O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarda (Shodmonov, 2010; Mambetjonov, 2015) ishchi kuchi resurslarining sifat jihatlari, bandlik darajasi va demografik jarayonlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Ushbu ilmiy manbalar demografik o'zgarishlarning ko'p qirrali xususiyatini va ularning iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.


Nikohga kirish natijasida, oilalar soni oshib boradi, yolg'izlar, bo'ydoqlar soni esa kamayadi. Nikohning bekor etilishi, ya'ni, ajralish jarayoni esa aholi tarkibida tugalmas oilalarning va bevalar salmog'ining ko'payishiga sabab bo'ladi. Inson dunyoga kelar ekan ma'lum davr yashaydi. Ana shu davr moboynida u ulg'ayib boradi. Go'daklik davridan bolalikka, o'smirlik, yoshlik o'rta yoshlik, yetuklik davrlariga o'tadi. Har bir o'quv yili tugashi bilan aholi tarkibida ma'lumotlilar soni oshib boradi. Ana shu tarzda shaxs hayotidagi o'zgarishlar aholi guruhidagi o'zgarishlarga olib keladi. Insonlarning bir xududdan ikkinchi bir xududga ko'chib o'tishi migratsiya, ushbu hududlar aholi soniga va tarkibiga ta'sir etadi.





Aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlarini o'rganar ekan, demografiya bir qator ilmiy yo'nalishlarga bo'linadi va bu yo'nalishlar demografiya fanlari tizimini tashkil etadi. Ularga





Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

1. **Statistik tahlil** – tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘shish va migratsiya ko‘rsatkichlari asosida demografik jarayonlar tahlil qilindi.
2. **Qiyosiy tahlil** – yosh aholisi ko‘p bo‘lgan va aholisi keksayib borayotgan hududlar o‘rtasida demografik tafovutlar taqqoslandi.
3. **Nazariy yondashuv** – iqtisodiyot nazariyasi va demografik modellar asosida ishchi kuchi takror ishlab chiqarilishi, bandlik va migratsiya jarayonlari tahlil qilindi.
4. **Sifat tahlili** – BMT, Jahon banki va milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida xalqaro tajribalar o‘rganildi.

1. Aholining tabiiy harakati

Aholining tabiiy o‘shishi tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari orqali belgilanadi. Tug‘ilish darajasi pasaygan davlatlarda aholining keksayishi jadallashmoqda. O‘lim darajasi kamayishi va umr ko‘rish davomiyligining uzayishi esa aholining tarkibiy o‘zgarishiga olib kelmoqda.

2. Ishchi kuchining miqdoriy va sifat jihatlari

- **Miqdoriy jihat:** Ishchi kuchi resurslari mamlakat aholisining mehnatga layoqatli qismini tashkil etadi. Odatda 16–60 yoshdagi erkaklar va 16–55 yoshdagi ayollar asosiy mehnat resurslari hisoblanadi.
- **Sifat jihat:** Ishchi kuchining malaka, ta’lim darajasi, kasbiy tayyorgarlik va mehnat tajribasi uning iqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Fan-texnika taraqqiyoti ishchi kuchi sifatiga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda.

3. Migratsiya jarayonlari

Migratsiya ichki va tashqi shakllarda bo‘ladi. Ichki migratsiya ko‘proq qishloqdan shahar hududlariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tashqi migratsiya mehnat resurslarining boshqa mamlakatlarga oqimini bildiradi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

- **Ijobiy ta'sir:** Migratsiya mehnat resurslarining samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, xorijiy tajriba va pul o'tkazmalari iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.
- **Salbiy ta'sir:** Mehnat migratsiyasi ayrim hududlarda ishchi kuchi tanqisligiga, bilimli kadrlarning chiqib ketishiga olib keladi.

4. Urbanizatsiya va hududiy tafovutlar

Yirik shaharlarda aholining to'planishi infratuzilmaga bosim o'tkazmoqda, qishloq hududlarida esa depopulyatsiya kuzatilmoqda. Bu esa mehnat bozorida hududiy nomutanosibliklarni kuchaytiradi.

5. Iqtisodiy o'sishga ta'sir

Demografik dividend davrida yosh aholining ko'pligi iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Biroq aholining keksayib borishi, tug'ilishning pasayishi va migratsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtirishi mumkin.

Xulosa

Demografik o'zgarishlar jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ishchi kuchi resurslarining miqdoriy va sifat jihatdan takror ishlab chiqarilishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari hamda yosh tarkibining o'zgarishi mintaqaviy iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilab beradi.

Shuning uchun demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida davlat siyosatini shakllantirish zarur. Aholining tabiiy o'sishi, migratsiya oqimlari va mehnat resurslarining sifatini boshqarishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan stanok — bu o'tgan davrlarda to'plangan buyumlashgan mehnatning mahsuli bo'lsa, uning yordamida yaratilgan mahsulot esa bir-biri bilan kooperatsiya qilgan ishchi kuchi mehnatining natijasidir. Bu jarayon ijtimoiy ishlab chiqarishning ko'p qirrali xususiyatini ifodalaydi.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

Shu nuqtai nazardan, ishchi kuchi takror hosil qilinishi, uning miqdoriy va sifat jihatlari, migratsiya oqimlari va aholining tabiiy o'sishi masalalari mehnat bozorini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida maydonga chiqadi. Aynan demografik jarayonlarni hisobga olmasdan turib, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni samarali tashkil etish mumkin emas.

Adabiyotlar sharhi

Jahon iqtisodiy tafakkurida aholining o'sishi va demografik jarayonlarning iqtisodiyotga ta'siri doimo dolzarb bo'lib kelgan. T. Maltus aholining tez o'sishini iqtisodiy resurslar yetishmovchiligi bilan bog'lagan. Ammo keyinchalik, D. Blum va D. Kennig kabi olimlar "**demografik dividend**" nazariyasini ilgari surib, yosh aholining mehnatga kirib kelishi iqtisodiy o'sishga kuchli turtki berishini ko'rsatganlar.

Shu bilan birga, iqtisodiyot nazariyasida ishchi kuchi takror ishlab chiqarilishi jarayoni nafaqat moddiy-ashyoviy omillar, balki inson omili bilan ham chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi (Samuelson, Nordhaus, 2015; Mankiw, 2016). Fan-texnika taraqqiyotining tezlashishi ishchi kuchining sifati, ya'ni malaka va bilim darajasiga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

O'zbek olimlari ham bu borada o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Masalan, Sh. Shodmonov va Q. Mambetjonovning asarlarida demografik o'zgarishlarning ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil** — iqtisodiyot nazariyasi, mehnat bozori va demografiya bo'yicha klassik va zamonaviy adabiyotlar tahlil qilindi.
2. **Statistik tahlil** — tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish koeffitsiyentlari, migratsiya oqimlari va mehnat resurslari miqdori bo'yicha mavjud ma'lumotlardan foydalanildi.
3. **Qiyosiy yondashuv** — turli hududlarda demografik jarayonlarning mehnat bozori va iqtisodiy o'sishga ta'siri solishtirildi.



Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. **Ishchi kuchining takror hosil qilinishi** – faqat jismoniy ehtiyojlar (ovqatlanish, kiyinish, dam olish) emas, balki oilaning mavjudligi, ta’lim va madaniyat tizimlari orqali ham ta’minlanadi. Bu jarayon mehnat bozoriga yangi avlod ishchi kuchining kirib kelishini kafolatlaydi.
2. **Ishchi kuchining miqdoriy jihati** – mamlakat mehnat resurslari tarkibi, ya’ni 16–60 yoshli erkaklar va 16–55 yoshli ayollar ulushi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, pensionerlarning ham faoliyat yuritishi mumkinligi resurslarni kengaytiradi.
3. **Ishchi kuchining sifati** – fan-texnika taraqqiyoti sharoitida malaka, kasbiy tayyorgarlik va bilim darajasi iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.
4. **Migratsiya jarayonlari** – ichki va tashqi migratsiya mehnat resurslarini qayta taqsimlashda muhim rol o‘ynaydi. Mavsumiy va tebranuvchi migratsiya ishlab chiqarish jarayonida vaqtinchalik bo‘shliqlarni to‘ldirsa, to‘liq migratsiya hududlararo resurs taqsimotini tubdan o‘zgartiradi.
5. **Bandlik darajasi** – ishchi kuchi resurslarining faqat faol qismini iqtisodiyotda samarali band etish mumkin. Bunda to‘liq bandlik mutlaq ma’noda emas, balki samaradorlik va oqilona taqsimot bilan bog‘liq holda qaraladi.

Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo‘lib, turli omillar ta’siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o‘zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko‘chib o‘tishini bildiradi. Migratsiya ikki darajada, ya’ni xalqaro darajada va mamlakat ichida ro‘y berishi mumkin. Davlatlar o‘rtasida ro‘y bergan migratsiya **tashqi migratsiya** deyiladi. Bir mamlakat ichida ro‘y bergan migratsiya **ichki migratsiya** deb atalib, u quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- 1) **tugal migratsiya** - aholining doimiy yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq migratsiya;
- 2) **tebranuvchi migratsiya** - ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog‘liq migratsiya;
- 3) **mavsumiy migratsiya** - mavsumiy ish faoliyati bilan bog‘liq migratsiya;



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-10

4) **tasodifiy migratsiya** - ishchi kuchining ba'zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya.

Munozara

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, demografik jarayonlar iqtisodiyotga ikki tomonlama ta'sir qiladi:

- **Ijobiy ta'sir:** yosh aholining mehnat bozoriga kirib kelishi yangi imkoniyatlar yaratadi, iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.
- **Salbiy ta'sir:** tug'ilish darajasining pasayishi, aholining keksayishi va migratsiya oqimlari hududiy mehnat resurslarida nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Shu sababli, davlat siyosatida ishchi kuchi sifatini oshirish, malakali kadrlarni tayyorlash, migratsiya oqimlarini boshqarish va hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Demografik omilning o'zgarib borishi mintaqaviy mehnat bozori va iqtisodiy o'sish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishchi kuchi resurslarining miqdoriy va sifat jihatdan takror ishlab chiqarilishi, migratsiya jarayonlari va bandlik darajasi hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Kelajakda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun:

- demografik jarayonlarni hisobga olgan holda hududiy mehnat siyosatini shakllantirish,
- ishchi kuchining sifatini oshirish,
- hududiy migratsiya oqimlarini muvofiqlashtirish,
- inson kapitaliga sarmoya kiritish muhim ahamiyatga ega.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bloom, D. & Canning, D. (2010). *The Demographic Dividend: New Perspectives on Economic Growth*. Population Matters Journal.
2. Lee, R. & Mason, A. (2017). *Population Aging and the Generational Economy*. Edward Elgar Publishing.
3. Jahon banki (2020). *Demografik tendensiyalar va mehnat bozori oqibatlari*. Vashington.
4. BMT Taraqqiyot Dasturi (2021). *Mintaqaviy demografiya va rivojlanish bo'yicha hisobot*. Nyu-York.
5. McConnell, Brue (2014). *Economics*. 17th edition. McGraw-Hill/Irwin, USA.
6. Mankiw, N.G. (2016). *Principles of Economics*. 7th edition. Amazon, USA.
7. Samuelson, P. A., Nordhaus, W. D. (2015). *Economics*. 19th edition. McGraw-Hill, USA.
8. Шодмонов Ш.Ш., Ғофуров У.В. (2010). *Иқтисодиёт назарияси*. Дарслик. – Т.: Iqtisod-moliya.
9. Мамбетжанов Қ.Қ. (2015). *Ижтимоий-иқтисодий тараққиёт назарияси*. – Т.: ТДИУ.





(Oktabr)

TABLE OF CONTENTS

1	COLLABORATIVE ROBOTS INTELLIGENT CONTROL USING FUZZY LOGIC WITHIN INDUSTRY Vladyslav Yevsieiev, Svitlana Maksymova, Amer Abu-Jassar	7-25
2	TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYALASHUVIDA TA`LIMNING O`RNI Jo`rayev Sanjar Ramazonovich, Odiljonov Ozodbek Odiljonovich	26-30
3	MATHEMATICAL MODELING OF A DECENTRALIZED ARCHITECTURE FOR CONTROLLING COLLABORATIVE WORK USING SENSOR NETWORKS Olena Chala, Amer Abu-Jassar, Vladyslav Yevsieiev, Svitlana Maksymova	31-52
4	ASOSIY ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH Chorshanbiyev Ibroxim Raxmon o`g`li, A.M.Xudoyqulov	53-64
5	ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДАҒЫ СОВЕТЛЕР ДИНИЙ СИЯСАТЫ: ҒӘРЭСИЗЛИК ДӘЎИРИНДЕГИ БАСПА СӨЗ АНАЛИЗЛЕРИ Аминов Раҳматжон Искандар ўғли	65-71
6	SAKSOVUL BUKRI CHIGIRTKASINING EKOLOGIK HAMDA OZUQAVIY AHAMIYATI Sa`dullayeva Gulzoda Usmon qizi	72-83
7	“DEMOGRAFIK O`ZGARISHLAR TAHLILI” Ibragimova Gavhar Shuxrat qizi	84-92
8	STYPHYLOCOCCUS AUREUSNING O`SISH SHAROITLARI, TOKSINLIGI VA RIVOJLANISH MUHITLARI. Xushboqova Feruza Elbek qizi	84-88
9	ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALAR HAYOTIDA MUVOZANATLI TARBIVANING AHAMIYATI Sharipov Mirjalol Jamoladdin o`g`li, Matkarimova Intizor Zafar qizi	89-95
10	O`ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO`NALISHLARI Mirzafarxonov Firdavs Mutozaxon o`g`li	96-107
11	MINTAQA BARQAROR RIVOJLANISHIDA INVESTETSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	108-112



	TAHLILI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) Safarov Botir Isaq o'g'li	
12	PAXTA XOMASHYOSINI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASHDA QOZIQLI BARABAN QOZIQLARI UZUNLIGINING TOZALASH SAMARADORLIGIGA VA ISH UNUMDORLIGIGA TA'SIRI Berdimurodov Umid Tog'aymurodovich, Erdonov Abdurahmon Muzaffarovich, Abdimajidov Farrux Abdilamitovich	113-118
13	O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH Hakimov Huniddin Xusanovich	119-124
14	OPTIMIZM VA JAMIYAT TARAQQIYOTI Abilov O'rol Murodovich	125-131
15	XX ASRNING 20-30-YILLARIDA MARKAZIY OSIYO MILLIY-HUDUDIIY CHEGARALANISH SIYOSATINING AMALGA OSHIRILISHI Mamatqulova Maftuna Akmaljon qizi	132-143
16	3D TEXNOLOGIYALAR VA SIMULYATSIYA ASOSIDA PAYVAND KONSTRUKTSIYALARNI LOYIHALASH Abdixamidov Nurbek Ural o'g'li, Abdullayev Jo'ra, Turdiyev Abdurasul, Musurmonqulov O'tkir	40-44
17	FARMATSEVIKA SANOATINING SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI BANDLIGI VA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI O'taganova Umida Egamberdi qizi	144-149
18	Davlat investitsiya dasturlarining samaradorligini oshirish istiqbollari Xolboy Chorshanboyevich Temirov	150-155
19	ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И СОЦИАЛЬНАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ ПАЦИЕНТОВ ПОСЛЕ ОПЕРАЦИЙ НА МИТРАЛЬНОМ КЛАПАНЕ Абдусаломов Мухаммадюсуфхужа Абдужаббор угли, Тураев Феруз Фатхуллаевич	156-158
20	TAMAKI MAHSULOTLARINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI Mengboyev Lazizbek, Shoyimova Komila	159-164





21	ДИАБЕТИЧЕСКАЯ РЕТИНОПАТИЯ — НЕМОЙ ВРАГ ЗРЕНИЯ: ОТ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ К СОХРАНЕНИЮ ЗРЕНИЯ Тошбоев Мухаммад Уктамович, Эсанова Нафиса Алишеровна, Ахмадова Дурдона Камол кизи	165-169
22	STRUCTURAL MODIFICATION OF POLYPROPYLENE AND PROPERTIES OF THE RESULTING MATERIALS Nazarov Erkin Sadikovich, Mahmudova Dilnura Ma'rif qizi	176-182
23	HUDUDLARDA MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHDA XUSUSIY SEKTOR VA INVESTITSIYALARNING O'RNINI Hotak Mahboob Shah XXX	183-187
24	O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINING INSTITUSIONAL RIVOJLANISHIDA MAVJUD KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI Rasooli Oloqbeg	170-175
25	INNOVATSIYALARNI KENGAYTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB QUVVATLASHNING MEYORIY ASOSLARI Ergasheva Sevara Bahridinovna	188-191
26	FORMATION OF COGNITIVE VISUAL SKILLS IN FUTURE TEACHERS SKILLS OF FUTURE TEACHERS Safojev Mustafjon Saidovich, Avliyakulova Nafisa Muzaffarovna	192-198
27	THE MAIN FUNCTIONS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT Sh.Sh.Fozilov	199-202
28	ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ БУДУЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. Жалилов Фаррух Абдурауфович	203-207
29	DAVLAT MOLIYASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BYUDJET SIYOSATINING ROLI Qodirov Hasan Do'stqobilovich	208-212
30	YEVROPA DAVLATLARIDA VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN TAYINLANGAN OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Kulturayeva Sarvinoz Sadridin qizi	213-221





31	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GENDER TENGLIK SIYOSATINI TATBIQ ETISH VA UNI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR Boboraxmatov Azizbek Rustamovich	222-239
32	GRETl AMALIY DASTURIY PAKETIDA SURXONDARYO VILOYATI CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI ARIMA MODELl Normamatova Yulduz Ravshan qizi	240-251
33	QO'ZIQORIN TOKSINLARI TA'SIRIDA YURAK TO'QIMASINING MORFOLOGIK TAHLILI Gulnoza Bobojonova	252-261
34	"DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR TAHLILI" Ibragimova Gavhar Shuxrat qizi	262-270
	MUNDARIJA	271-274

